



TILAK

Bugun butun dunyo nigohi Shimoliy Amerika qit'asiga qaratilgan.

AQSH, Meksika va Kanada yashil maydonlarida rosa bir haftadan keyin boshlanadigan futbol bo'yicha navbatdagi Jahon chempionati – mundial milliardlab muxlislar yuragini hovliqtirmoqda. Ummon ortida boshlanayotgan ushbu xalqaro futbol bayrami bu gal biz, o'zbekistonliklar uchun butunlay boshqacha, tarixiy ahamiyatga ega. Zero, futbol tarixida ilk bor O'zbekiston milliy terma jamoasi ushbu eng nufuzli musobaqada ishtirok etadi.



“SHUNI BILINGKI,

BIZ DOIM SIZLAR BILANMIZ!”



Futbol haqida gap ketganda ustoz Erkin Vohidov bir voqeani aytib bergandi. Atoliq ustozlardan biri bilan qaysidir viloyatga safarga borishga to'g'ri kelib, Erkin aka u kishining eshiklariga boripti. Hovliga kirsam, katta ustoz ayvonida sarpoychan o'chiq televizorga qarab, alag'da o'tirganmish. Erkin aka “Ha, ustoz, tinchlikmi?” deb so'rasa, oqsoqol “Futbol bo'lyapti, biznikilar o'ynayapti...” deпти alang-jalang. “O'ynayotgan bo'lsa, nega ko'rmayapsiz, to'k yo'qmi?”

desa, kexsa ishqiboz “To'k bor-u, yurak yo'q, yana yutqizadimi, deymanda” dermish. Ustozim bu xavotirni sharhlab, “Jamoamilliy bo'lmasa, klub tajriba xo'jaligi bo'lsa, ahvol shu-da. Nomdor klublarning yutug'i o'z mahalliy futbolchilariga bog'liq...” deganlari qulog'imda.



Necha o'n yillar davomida biz bu kunni, bu lahzalarni kutdik. Har bir saralash bosqichida kichik xatolar, so'nggi daqiqalardagi omadsizliklar yoki

alamli mag'lubiyatlar qalbimizni tirnagan edi.

Ammo o'zbek xalqi umid uzmad. Va nihoyat, Prezidentimizning futbolga qaratgan e'tibori, yangi avlod vakillari, murabbiylarning tinimsiz mehnati va butun xalqimizning duolari evaziga milliy terma jamoamiz Shimoliy Amerika yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

Bu shunchaki sport muvaffaqiyati emas, bu – butun bir millatning g'alabasi, millionlab qalblar orzusining ro'yobidirl!

Mazkur tarixiy yutuq xalqimizni ezgu maqsadlar yo'lida yanada birlashtirdi,

ming-minglab yoshlarimiz uchun ilhom manbayiga, ibrat timsoliga aylandi, Yangi O'zbekistonning xalqaro obro'-e'tiborini chandon oshirishga xizmat qildi.

O'zbekiston xalqi uchun futbol faqat o'yin emas. Bu – birdamlik, jipslik timsoli. Ushbu tarixiy voqealik biz buyuk xalq ekanimizni yana bir bor tasdiqlaydi. Yigitlar maydondagi bahslari orqali xalqning ovozi bo'ldi, raqib jamoaga qarshi to'p bilan emas, milliy g'urur, yuksak ishonch bilan kurashdi va yutdi.

(Davomi 3-sahifada.) ➔



BOLALIK KUNLARI

Xotira hikoyalar

1. CHARXPALAK

Qachon esim kirgan vaqtini aniq eslayman. Beshinchi sinfni bitirib, oltinchi sinfga o'tgan edik. Qirq yettinchi yo qirq to'qqizinchi yillardir, har holda elliginchi yil emas. Elliginchi yilda o'ta dabdaba va aloxon-u alomon bilan targ'ib qilingan kattakon “O'zbek poeziyasi antologiyasi” degan dohiy surati va ipaklar bilan bezatilgan kitobga umrimda ilk bor obuna bo'lgan edim. Ul o'ta sharafl kitobga muhtaram Oybek domla xayl-u hasham chekib so'z yozgan edilar. Shul dabdabali kitobdan birinchi marta o'zbek she'riyatining kommunistcha talqini borasida tasavvur olgan edim. Undan oldinroq tog'am Husanbek Ibodovning kutubxonasida 40-yilda chiqqan ajoyib xrestomatiya bilan tanish bo'lganim uchun tog'am bu olamshumul xrestomatiyani universitetga kirgan yilim sovg'a qilgan edilar. Rostini aytsam, xrestomatiya bilan antologiya o'rtasida ancha vaqtgacha arosatda qoldim. Fikrimni yig'ishtirmay yurdim. Ancha yillardan so'ng haqiqatni ilg'aganday bo'ldim.

Odam qachon aniq esi kirgan yil yo vaqtini aytib bera olmaydi. Chunki buni ko'p o'ylab o'tirmaydi. Otam tub usta shirmonpaz novvoy edilar. Amakilarim va ammalarim ham shirmonpaz novvoy edilar.

(Davomi 4-5-sahifalarda.) ➔

FAKT

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Syangan (Gonkong) maxsus ma'muriy hududi Administratsiyasi rahbari Li Szyachao boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi. Muloqotda Gonkong bilan ikki tomonlama asosda vizasiz tartibni joriy etish yuzasidan ham kelishuvga erishildi.

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahrida o'tayotgan Global ekologik jamo'armaning sak-kizinchi assambleyasi ishtirokchilariga tabrik yo'lladi.

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni qabul qilindi.

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Said Mirziyoyeva Avstriyaning Vena shahrida bo'lib o'tgan BMT Jinoyatchilikning oldini olish va jinoiy odil sudlov komissiyasining 35-sessiyasida milliy ma'ruza bilan ishtirok etdi.



VATAN MANZUMASI

Yurt quyoshi mangu so'nmas

Muhabbat gullari ko'ksing bahorida mudom so'lmas, Vatan ishq umrboqiy, u manguga zavol ko'rmas, U bir so'zki, Quyosh yanglig' bag'ishlar nur, o'lim bilmas, Usiz joningda jon yo'qdir, bahorlar ham bahor bo'lmas, Yurak aytur, yurak aytur: “Vatandin yaxshi yor bo'lmas!”

Go'zal jannat erur bog'lar, tomirlarda jo'shar qonlar, O'z elida baxtiyordir mehnatsevar, hur insonlar, Yangi O'zbekiston elga ochib berdi zo'r imkonlar, Ming shukrkim, qo'l duoda, duoli el zavol bilmas, Yurak aytur, yurak aytur: “Vatandin yaxshi yor bo'lmas!”

Vatan tuprog'iga bir tup nihol ekmoq emas oson, Bugun o'zbek shiddatidan ko'hna dunyo lol-u hayron, Vatan saodatini ko'zlab orom bilmas ulug' Sarbon, Duolar ko'kka o'riyadi, yurt quyoshi mangu so'nmas, Yurak aytur, yurak aytur: “Vatandin yaxshi yor bo'lmas!”

Shukr neda? Shukr, elim, mehnat-u baxt-saodatda, Go'daklarning quvonchida, Yaratganga ibodatda, Shukr qildim bu kunlarga ijod-u ruh-u rohatda, Elim, boshing baland bo'lsin, sen ekan nihollar so'lmas, Yurak aytur, yurak aytur: “Vatandin yaxshi yor bo'lmas!”



Sharifa SALIMOVA,
O'zbekiston xalq shoiri



E'ZUZ



BUYUK XIZMATLAR UNUTILMAYDI!


Bugungi kunda inson qadri ulug'lash, ajdodlar xotirasiga munosib ehtirom ko'rsatish davlat siyosati darajasida hayotga tatbiq etilayotgani barchani birday quvontirmoqda. Yaqinda o'zining yorqin iste'dodi, ko'p yillik samarali ijodiy faoliyati bilan kelajak avlodlar uchun bebaho meros qoldirgan, Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, xalqimizning ma'rifiy-badiiy tafakkuri va intellektual salohiyatini yuksaltirish,

yurtimizda madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini rivojlantirishga beqiyos hissa qo'shgan bir guruh marhum ijodkorlar davlatimizning yuksak ordenlari bilan mukofotlandi. Prezident farmonidagi ro'yxatni birma-bir o'qir ekansiz, quvonch va hayajon butun borlig'ingizni qamrab oladi. Zero, ro'yxatda nomlari zikr etilgan har bir ijodkorning betakror va umrboqiy san'ati siz-u biz uchun birday aziz, birday qadrdondir.

(Davomi 8-sahifada.) ➔



CHAMA



- Olimlar nima deydi?
- O'zbekiston nimalarga erishdi?
- Biz o'zimizni qanday tayyorlashimiz kerak?

Dunyo aholisi har yili millionlab odamga ko'payib bormoqda. Yer yuzida bugun 8 milliard 200 million inson yashayapti, 2050-yilga borib bu raqam 9-10 milliarddan oshadi, deb ta'kidlamoqda olimlar. Demak, har kuni ertalab dasturxon atrofiga o'tiradigan oila a'zolari soni bilan bir qatorda, ularni boqadigan dalalar va suv manbalari samaradorligi, texnologiyalar rivoji ham ortib borishi lozim.

Shu yerda biz o'zimizga juda oddiy, lekin javobi murakkab bo'lgan bir savolni berishimiz kerak: 2050-yilda insoniyatni kim boqadi?

Bu savol O'zbekistonda ham o'ta dolzarb – zero, mamlakatimizda ham aholi soni o'smoqda, iqlim o'zgarmoqda, suv zaxiralari esa kamaymoqda.

Ammo yaxshi xabar ham yo'q emas: mamlakatimiz oxirgi 8 yilda aynan shu muammolarga rejali va izchil tarzda javob tayyorlab kelmoqda. Axir, xalqimizda “Rejali ish buzilmas”, “Har bir ishning chamasi bor”, “O'ylamagan o'kinar” singari dono maqollar bejiz aytilmagan.

(Davomi 6-sahifada.) ➔



DIL SO'ZI

San'at saodati

**G'iyos BOYTOYEV,**
O'zbekiston xalq artisti:

— Yuksak unvonga munosib ko'rilganim men uchun kutilmagan voqea bo'ldi. Xushxabarni ijodiy safar chog'ida eshitdim. Dastlab ishonmadim, balki orden yo medal berilgandir, deb o'yladim. Darhol Prezident matbuot xizmati sahifasida e'lon qilingan Farmonni o'qidim. Ochig'i, baxt ham odamni shu darajada dovdiratib qo'yishi mumkinligini bilmasdim. Yoshligimizda ustozlarimiz: "Ilohim, bizning yo'limizni bersin! Bizdan baland martabalar nasib qilsin!" — deb duo qilardi. Mana, o'sha duolar

ijobatiga erishdim, degan o'y kechdi.

Asosiy hayajon taqdirlash marosimida boshlandi. O'zimiz shogirdlarga hayajonni yengishni, sahnada o'zini qanday tutishni o'rgatamiz. Lekin Davlat rahbari bilan uchrashish, qo'lidan mukofot olish mutlaqo o'zgacha jarayon ekan. Prezidentimizning ochiq chehrasi, ijodimiz haqidagi e'tirofi ko'nglimni osmoncha ko'tarib yubordi. Samimiyatdan xursand bo'lib ketdim.

Prezidentimiz nafaqat bir guruh hamsblarimizga mukofot topshirdi, ayni paytda yurtimizdagi barcha ijodkorlar uchun misli ko'rilgan imkoniyatlarni taqdim etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qirq banddan iborat "Madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni buning eng yorqin timsolidir.

Endi bizning vazifamiz — Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga butun qalbimiz, ijodimiz, fikrlarimiz bilan "labbay" deb javob berish. Prezidentimiz e'tibori, muxlislar muhabbati va san'atsevar xalqimiz duolari bilan yangi zamonga munosib ijod qilishga harakat qilamiz!


**Mavzur MAHMUDOV,**
O'zbekiston xalq rassomi:

— Odam bir yutuqqa erishsa, ortiga bir qarab oladi. Odatda, o'tgan yillar oq-qora tasvirday aylanadi xayolda. Men bu safar hayotimdagi eng baland cho'qqiga ko'tarildim. Shu bois, umrim manzaralarini aniq-tiniq ko'rdim, sarhisob qildim. Bugungacha o'ttizdan ortiq multfilm-lar suratga olgan bo'lsam, o'ntasi yurtimizda va xorijda o'tgan festival-larning yuksak mukofotlariga sazovor bo'ldi.

Aytish joizki, multfilmni suratga olish nihoyatda murakkab jarayon. Bir soniyada 25 ta kadr o'tishini nazarda tutsak, ishning qanchalar diqqatlab ekanini his etish mumkin. Lekin oxir-oqibat, qilayotgan mehnatimiz farzandlarimiz tarbiyasiga hissa qo'shayotganidan mamnunlik tuyamiz. Shundan xursandmanki, multfilm-lar bolalarni yaxshilikka chorlaydi, ularni hayotga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Davlatimiz rahbari qarori bilan Bolalar kontentini rivojlantirish markazi faoliyati yo'lga qo'yildi. U kishi katta-katta yig'ilishlarda, uchrashuvlarda milliy kontent yaratish va tarqatish masalasiga urg'u beradi. Nima uchun? Buning sababini kuni kecha o'tgan uchrashuvda aniq va mazmundor qilib tushintirib berdi: "Bizga milliy ruhni uyg'otadigan san'at kerak, xalqni ilhomlantiradigan adabiyot kerak, yoshlarga faxr va iftixor beradigan kino kerak, qalb-larni junbishga keltiradigan musiqa kerak, odamning o'zini anglashga undaydigan teatr kerak".

Shundan kelib chiqsak, bugun bola qaysi multfilmni ko'rayotgan bo'lsa, uning dunyoqarashi kaliti ishlab chiqaruvchi qo'lida bo'ladi. Shu ma'noda, milliy animatsiya sohasini yangi bosqichga ko'tarish bizning burchimizdir.

**Ilmira RAHIMJONOVA,**
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist:

— Davlat mukofoti insonga g'urur, xushbaxtlik baxsh etishi bilan birga, zimmasiga ulkan mas'uliyat ham yuklaydi. Davlatimiz rahbaridan unvonni qabul qilib olar ekanman, oldimda juda katta vazifalar turganini his qildim. Prezidentimiz tabrigi va neqtini kiprik qoqmay eshitdim. Men hech qachon o'sha kungiday Vatan, Xalq, San'at oldidagi burchimni, qarzimni, mas'uliyatni bunchalik chuqur his qilmagandim. Lekin ortiq darajadagi hayajon sabab, so'z berilganida durustroq rahmat ham aytoilmadim. Endi minnatdorligimni

amaliy faoliyatda ko'rsatish taraddudidaman.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev uchrashuvda yana bir qimmatli fikrni ilgari surdi: "birgina spektakl jamiyat tafakkurini uyg'otadi", "odamning o'zini anglashga undaydigan teatr kerak". Jadid bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy "Teatr bu ibratxonadir" degan bir asr avval. Bugun bunday teatrni yaratish uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

2026-yil 1-sentyabrda boshlab nodavlat teatr va teatr-studiyalarning har yili 50 ta sahna asari yaratish xarajatlari, har oyda xususiy binoni ijaraga olish xarajatlarning bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha bo'lgan qismi davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplab beriladigan bo'ldi. "Art house Hamsa" xususiy teatri rahbari sifatida bu imtiyozlar meni va jamoamizni benihoya quvontirdi.

Prezidentimizning inson qadri, adabiyot va san'at rivoji uchun qayg'urayotgani, shunchalar kuyunib ishlayotgani hammamizga o'mak bo'lishi kerak. O'zimga shunday xulosa chiqardim: hali oldinda qiladigan ishlarim ko'p, hozirgi harakatlarim yetarli emas, xalqimizga yetuk obrazlar taqdim etish yo'lida yanada ko'proq izlanishim zarur.

Gulchehra UMAROVA yozib oldi.

QUTLOV

Ustozadiblardan birimamlakatimizda kechayotgan keyingi davrni, "ta'bir joiz bo'lsa, adolat davri deb atagan bo'lardim" deya lutf etgandi. Haqiqatan, muhtaram Prezidentimiz olib borayotgan Yangi O'zbekiston islohotlarining bosh mezoni adolat ekani barchamizga kunday ravshan.

Biz bu muhim omilni barcha jabhada, jumladan, ijodkorlarga nisbatan munosabatda ham yaqqol ko'ryapmiz. Kuni kecha davlat mukofotlari bilan taqdirlanganlarning barchasi ijtimoiyat tomonidan iliq kutib olindi, odatiy muhokamalarda e'tirozlar ko'rilmasdi. Jumladan, bizning jadidchi hamkasblarimiz Shuhrat Aziz va Shahriyor Shavkatning

"Shuhrat" hamda "Kelajak bunyodkori" medallari bilan siylangani nafaqat jamoamiz a'zolarini, balki keng afkor ommani ham mamnun etdi.


Shuhrat Aziz chorak asrdan beri matbuot jonkuyari va o'ziga xos shoir sifatida elimiz nazarida bo'lsa, Shahriyor Shavkat nav-qiron shoirlar safining peshqadamlaridan sanaladi. Xullas, mukofot o'z egasini topdi! Adolat rusumi yana bir karra o'zining oydin jamolini ko'rsatdi.

Aziz gazetonlar, agar izn bersangiz, Sizning nomingizdan ham bu ikki zahmatkash ijodkor do'stlarimizni yana bir bor qutlab, ularga bag'ributunlik, ilhom va g'ayrat tilab qolamiz!

TAHRIRIYATDAN

“Davlatni iqtisod ko'taradi, qonun boshqaradi, armiya himoya qiladi. Lekin qaysi mamlakat adabiyot va madaniyatga e'tibor bersa, kelajagi mustahkam bo'ladi. Qaysi jamiyat ijod va san'atni qadrlasa, o'sha xalqning ma'naviy immuniteti kuchli bo'ladi. Bitta yaxshi asar, ta'sirchan qo'shiq millatning ruhini ko'taradi, birgina spektakl jamiyatning tafakkurini uyg'otadi, kinodagi bir obraz butun avlodning qarashini o'zgartiradi.

Shavkat MIRZIYOYEV

**Shuhrat AZIZ,**
"Shuhrat" medali sohibi

*Sen – mening ichimsan, suyagimdirsan,
Suyanganimdirsan – mag'rur va o'ktam.
Afsuski, emassan, yuragim, bir sen,
Shu yugur-yugurlar jonidan o'tgan.*

*Uzangiga qo'li yetmay, ko'karib,
Qaltirab turgan bir g'arib, benajot
Go'dak eding, shundoq boshga ko'tarib,
Egarga chiqarib qo'yganda oq ot.*

*Sen shuhrat ortidan ketding: "Men o'zim –
Shuhratman", deb sendan farqli o'laroq,
Shuhrat topmasam ham u dam, toychog'im,
Izlasam bo'larkan o'zimni ko'proq.*

*O'zimni topmasam, yoqmasa turqim,
Ko'paytirib nima qildim qorani?!
Olmasam, loaqal Xudodan qo'rqib,
O'zim bilan ochiq qilib orani!?*

*Yot suyak tashlasa itday ishlatib,
Ko'rsam-u men uni otamdan afzal,*

Shuhrat yorlig'i

*Nahot o'z otamni yurak ushlatib,
Qilsam ikki dunyom taqdirini hal?*

*Oh, onam ko'nglidan chiqsam-chiqmasam,
Borini bersa-yu – dasta-dastalab –
Men uning ko'ngliga qaramasam ham,
Nahot suratimga qo'ysa asta lab?*

*Nafim tegmasa-da, jim Vatan bo'lib
Bir umr boshimni silagan shu zot,
Beminnat osh-non-u jon-u tan bo'lib,
Mehringa zor bo'lib o'tirsa nahot?!..*

*Badali og'ir har qanday xatoning,
O'ynashgim yo'q taqdir quyuni bilan.
Tortisha olmaydi o'g'il otaning
O'zi tugul oyoq kiyimi bilan.*

*Bu shuhrat yorlig'i, shavqi – bir qultum,
Bo'g'zimni tinagan gul erur, tilmas.
Ey, otao'g'il, men o'zimni bildim,
O'zini bilmagan Vatanni bilmas.*

Hazratim

*Xush kelarmi sizga kelganim?
Qaytmaydimi ko'nglingiz, qaytsam?
Sag'anangiz atrofida jim
Nomingizni shivirlab aytсам:
Hazratim...*

*Yayov borsam sizga, o'rtanib,
Yalangoyoq, munkib, emranib.
Bo'taloqday toyib, tebranib,
Aytib-aytib asriy hasratim –
Hazratim?*

*Vazmin-vazmin tashlarman qadam,
Mo'tabarsiz, mangu muhtaram.
Tiz cho'kmagan g'ururimni ham
Faqat shu on uchun asradim –
Hazratim!*

*Qayga boray, o'zimdan o'zib,
Hapqiraman o'zimdan o'zim,
Duolarim uzundan uzun,
Abrorlardan ulgi hayratim,
Hazratim!*

*O'zbekiston ahlidan mudom
Keltirarman sizga assalom...
Bo'lib Majnun, Farhod-u Bahrom,
Aytadirman so'ngsiz rahmatim,
Hazratim!*

Hirof.
09.02.2026

**Shahriyor Shavkat,**
"Kelajak bunyodkori"
medali sohibi

MUTOLAA

Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi tasarrufidagi "Ma'naviyat" nashriyoti tomonidan shoir Eshqobil Shukurning "Megapolisdan Himolay cho'qqisigacha" deb nomlangan yangi kitobi nashr etildi. Ushbu kitobda mualliflarning sara maqola va esselari jamlangan.

Har birimizning o'z ko'zqarashimiz, o'z hayot yo'limiz bor. Siz bilan men bir vaziyatga turlicha baho berishimiz mumkin, yondashuvda farq bo'ladi. Bu tabiiy. Sog'lom jamiyatda turfa xil qarashlarga ega insonlar ma'lum bir qadriyatlar asosida birlashadi. Demakki, bizni bog'lab turgan rishtalar, tariximiz, bobotilimiz, adabiyotimiz, o'zbekning qadriyatlari, o'zbekchilik... Kitob shu to'g'rida. Muallif yozadi: "So'z erkinligi buyuk ne'mat. Ahli fikr uchun bu suv bilan havoday aziz. Bu ne'mat bizga berildi. Lekin biz bunga tayyormizmi deb o'ylab qolaman. Men so'z erkinligini katta mas'uliyat sifatida tushunaman. O'z so'zingni bu mening so'zim deb ayta olish



odamdan ma'naviy tayyorgarlikni talab qiladi. Odamning so'zi uning o'zidir".

Kitobxon mutolaaga kirishib, birin-ketin yangi sahifalarni ochar

ekan, uning ko'z o'ngida o'zi bilgan shoir Eshqobil Shukur emas, balki o'tmish va o'tish davrlarini ko'rgan, shu kunlarda yashayotgan o'zbek ziyolisi gavdalanadi. Lekin kitob muallif haqida emas. Yo'q. Ijodkor shu jamiyatning bir kishisi o'laroq o'z shaxsiy kuzatuvlari, hayotiy tajribalari, o'tmish, bugun va kelajak haqidagi teran mushohadalari bilan o'rtoqlashadi, o'quvchini suhbatga tortadi. O'qish davomida suhbatdoshning vazmin ovozi eshitib turganday bo'lasiz. Tinglay turib, bu mulohazalar sizga ham begona emasligi, uning xavotirlari, xulosalari xayolingizdan bot-bot o'tib turgan o'y-fikrlarga esh ekaniga hayron qolasiz.

Shuningdek, ushbu maqola va esselarda muallif tamaddun va madaniyatlar, Yer shari va bashariyat taqdiri, zamonlar silsilasi kabi miqyosli mavzularni, avlodlar almashinuvi, o'tgan bobolar tutumi, zumer avlodning dunyoni

anglashi, madaniyatlar qorishuvida o'zlikni saqlab qolishdek muhim masalalarni o'rta qam tashlaydi, tafakkur chig'irig'idan o'tkazadi. Kitob umumbashariy muammolarga yechim topib bermaydi, lekin kitobxon mutolaadan so'ng kalavanning bir uchini topganday bo'ladi, o'zini qiynab yurgan chigal o'ylar endi bir qadar tartibga tushganday tuyuladi.

Eng muhimi, qalbga yorug'lik inadi. Barcha davrlarning oltin qoidasini yaxshi anglab yetganday yakuniy va qat'iy bir qarorga kelasiz – HAR QANDAY HOLATDA HAM INSON BO'LIB QOLISH. Ya'ni, muallif ta'biricha, tiriklikning tub mohiyati, yadrosi ezigulikdir:

Sezishimcha, hayot haqiqati formulasi – yashash formulasi qo'shish va ayrishdan ham sodda. Bu shunday: hech qachon yomon niyat qilma, to'g'ri niyatning o'zi haqiqatdir.

Jamoliddin BADALOV



“SHUNI BILINGKI, BIZ DOIM SIZLAR BILANMIZ!”

Boshlanishi 1-sahifada.

To'g'ri, bu g'alaba biz uchun katta natija emas, lekin bu – katta manzil tomon ilk dadil qadam.

Bu olamshumul muvaffaqiyat ortida so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi mamlakatimizda sport sohasida, xususan, futbolda amalga oshirilgan inqilobiy va tizimli islohotlarning chuqur zahmati yotibdi.


Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-martdagi qarori bilan, 2018–2022-yillarda futbolni yanada rivojlantirish dasturi qabul qilingan edi. Shu hujjatga ko'ra, iste'dodli yoshlarni tanlash, keyinchalik professional etib tayyorlash hamda milliy terma jamoalar zaxirasini yaratish maqsadida 14 ta hududda bolalar va o'smirlar futbol akademiyalari tashkil etildi. Mashg'ulot va musobaqalarda sog'lom raqobat evaziga sifat oshdi. Murabbiylar, hakamlar va boshqa mutaxassislariga e'tibor kuchaydi.

2019-yil 4-dekabrda Prezidentimiz "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" farmon imzoladi. Unda klublar faoliyatini rivojlantirish, xalqaro darajadagi mutaxassislar tayyorlash, terma jamoalarning o'quv-mashg'ulot jarayonini zamonaviy tashkil etish, mamlakatimizda nufuzli musobaqalar o'tkazish maqsadlari belgilangan edi.

2023-yil 8-aprelda qabul qilingan ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishga oid Prezident qarori ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bunday e'tibor va tizim tufayli birin-ketin natijalar kela boshladi. 2018-yilda U-23 jamoamiz Xitoyda, 2023-yilda U-20 futbolchilarimiz O'zbekistonda o'tgan musobaqalarda Osiyo chempionligini qo'lga kiritdi. Yurtimizda FIFA va OFK dasturidagi turnirlarni o'tkazish yo'lga qo'yildi. Saudiya Arabistonida bo'lib o'tgan Osiyo kubogida 17 yoshgacha bo'lgan o'smirlar terma jamoamiz birinchi o'rinni egallab, jahon chempionatiga yo'llanma olganda Prezidentimiz ushbu qahramon futbolchilarimiz bilan uchrashib, ularga mehr-e'tiborini izhor qilgani ko'ksimizni iftixorga to'ldirgandi.

Davlat maqomida, Prezident darajasida qaratilayotgan e'tiborga yarasha xalqaro sport arenasida ham O'zbekistonga bo'lgan qiziqish kuchayib bormoqda. Xususan, FIFA prezidenti Janni Infantining 2023-yil may oyida va "CAFA Nations Cup 2025" musobaqasining final uchrashuvini stadiondan kuzatish uchun O'zbekistonga tashrifi mamlakatimizda futbolni yanada rivojlantirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Ushbu tashrif davomida futbolni rivojlantirishga oid qator loyihalar muhokama qilindi.

Milliy futbol markazida bo'lgan FIFA prezidenti majmuaning imkoniyatlari, mashg'ulot sharoitlari va yosh futbolchilar uchun yaratilgan qulayliklar bilan yaqindan tanishdi. Bevosita FIFAning texnik ko'magida zamonaviy Milliy futbol markazi qatori innovatsion yechimlarga tayangan raqamli futbol situatsion markazi ham tashkil etilganidan xabardor bo'lsangiz



kerak. Toshkent shahrida FIFAning Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun mintaqaviy ofisini ochish yuzasidan kelishuv o'z-o'zidan bo'lgani yo'q. FIFA rahbariyati mamlakatimizdagi futbol siyosati va xalqimizning bu sport turiga mehr-u muhabbatini his qildi, aniqrog'i, azaldan shakllangan buyuk ishqibozlik tuyg'usi dunyo futbolini mas'uliyatiga yetkazildi. Shu tariqa, janob Infantino futbolsevar millatning do'stiga aylandi va O'zbekiston Prezidenti o'zbek futbolini rivojlantirish va xalqaro maydonda ilgari surishga qo'shgan shaxsiy hisssasi uchun FIFA rahbari Janni Infantinoga davlatimizning yuksak mukofoti – "Do'stlik" ordenini topshirib, samimiy do'stlik munosabatini, hamkorlikni rasman e'tirof etdi.

Yangi tashkil etilgan Milliy futbol markazi millionlar o'yinini ilmiy yondashuv, zamonaviy metodologiya va jahon standartlari asosida boshqarishning asosiy o'chog'iga aylandi. Bugun ushbu markaz o'zbek futbolining kelajak chempionlarini tarbiyalovchi haqiqiy "intellektual laboratoriya" vazifasini o'tamoqda.

Sport infratuzilmasini yangilamay turib, katta zafarlar haqida gapirib bo'lmaydi. O'tgan yili Toshkent shahrida barpo etilgan, maydoni 100 gektardan ziyod bo'lgan ulug'vor Olimpiya shaharchasi O'zbekistonning sport salohiyati nechog'lik yuksak ekanini butun jahonga namoyish etdi. Bu ulkan majmua mamlakatimizda eng yirik sport musobaqalarini yuqori saviyada o'tkazishga qodir ekanimizni isbotladi. Bundan tashqari, Yangi Toshkent shahrida qad rostlayotgan FIFA standartlariga to'liq javob beradigan 55 ming o'rinni yangi stadion qurilishi o'zbek futbol tarixida yangi davrni boshlab beradi. Ushbu muhtasham arena nafaqat milliy terma jamoamizning bosh qarorgohiga, balki yaqin kelajakda nufuzli qit'a va jahon miqyosidagi turnirlar, Jahon

chempionati o'yinlarini qabul qiluvchi yirik sport xabiga aylanishi shubhasizdir.

Bugungi tarixiy yutuqlarning eng kuchli harakatlantiruvchi drayveri, shubhasiz, Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlardir. Prezidentning futbolni rivojlantirishga oid tarixiy hujjatlari sohani moliyalashtirish manbalarini kengaytirdi, sportchilar va murabbiylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirdi, eng muhimi, boshqaruv tizimini korrupsiyadan holi, shaffof va samarali tizimga aylantirdi. Aynan mana shu huquqiy baza o'zbek futbolini mahalliy darajadan chiqarib, jahon miqyosiga olib chiqdi.

Uzoq yillar futbolimiz rivojiga g'ov bo'lgan, iqtidorlarning yuzaga chiqishiga to'sqinlik qilgan eng katta illat kadrlar tanlovidagi korrupsiya va "tanish-bilishchilik" edi. Ilgari nafaqat terma jamoaga, balki klublarga ham futbolchilarni jalb etish jarayoni ko'pincha sport prinsiplariga zid ravishda, yashirin kelishuvlar va buyruqbozlik asosida amalga oshirilardi. Bu esa iqtidorli yoshlarning ruhini sindirib, ularni sportdan sovutib qo'yardi.

Prezidentimizning qat'iy siyosiy azmi bilan mazkur illatga butunlay barham berildi. Bugun terma jamoa eshiklari faqat va faqat mehnat, tinimsiz mashg'ulot, yuqori professional daraja va maydondagi jasoratni o'z mahorati bilan uyqashtira olgan futbolchilar uchun ochiq. Raqobat muhiti sun'iy ravishda emas, balki tabiiy, sog'lom va shaffof tarzda shakllantirildi.

Futbol – bu jamoaviy o'yin, ammo uning poydevori har bir o'yinchining shaxsiy mas'uliyatiga borib taqaladi. "Kim kuchli bo'lsa, o'sha maydonga tushadi" degan tamoyil bugun O'zbekiston milliy terma jamoasida temir qoidaga aylandi. Murabbiylar shtabi uchun o'yinchi tanlashda endilikda faqat futbol statistikasi, jismoniy holat va taktik tayyorgarlik mezon

hisoblanadi.

Mazkur o'zgarishlar nafaqat futbolchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini o'ttirdi, balki muxlislarda ham terma jamoaga nisbatan hurmatni qayta uyg'otdi. Bugungi kunda Jahon chempionati sari yo'l olgan "Oq bo'rilar" tarkibining munosabatini kuzatib ekansiz, ulardagi o'zaro hurmat va birlikni ko'rasiz. Ularning har biri – o'z o'rnini halol mehnati bilan qozongan qahramonlardir. Qarindosh-urug'chilik va mahalliychilikning yo'qolishi, kadrlar siyosatining shaffoflashuvi natijasida biz futbolda haqiqiy "ijtimoiy lift" tizimini yaratadik. Bu esa har bir mahallada to'p tepayotgan bolakayga "sen ham agar intilsang, kelgusida Jahon chempionatida Vataning sharafini himoya qila olasan", degan umidni bermoqda.



Jahon chempionati tarixida ilk bor 48 ta jamoa ishtirok etayotgan ushbu kengaytirilgan format biz uchun omadli keldi. AQSH, Meksika va Kanadaning eng muhtasham stadionlarida o'zbekistonlik futbolchilarning to'p surishi, ularning dunyo grandlari bilan kuch sinashishi – chinakam o'zbek sporti mo'jizasidir. Endi dunyo ahli "Oq bo'rilar"ning jangovar ruhi, o'zbek futbolining o'ziga xos maktabi va shijoati bilan yaqindan tanishadi.

Futbol jamoasining xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatlari mamlakat nomini dunyoga taratadi. Jahon chempionati, Osiyo, Afrika, Yevropa chempionati kabi yirik turnirlar millionlab muxlislar e'tiborini jalb qiladi. Bunday musobaqalarda g'olib chiqqan yoki muvaffaqiyatli ishtirok etgan mamlakatlar haqida ma'lumotlar butun dunyoga tarqaladi. Natijada, bu mamlakatga qiziqish ortadi, turizm rivojlanadi va investitsiyalar jalb etiladi. Misol uchun, Islandiya terma jamoasining 2016-yilgi Yevropa chempionatidagi muvaffaqiyati butun dunyoga Islandiya degan kichik mamlakat borligini eslatib qo'ydi. Xorvatiya terma jamoasining 2018-yilgi Jahon chempionatidagi finalga qadar yetib borishi Xorvatiyaning sayyohlik salohiyatini oshirdi va mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Futbol nafaqat imidj, balki iqtisodiyot uchun ham katta vositadir. Yirik futbol musobaqalarini o'tkazish uchun stadionlar quriladi, infratuzilma rivojlanadi, mehmonxonalar va restoranlar biznesi gullab-yashnaydi. Bu esa yangi ish o'rinlari yaratilishiga va mamlakat byudjetiga daromad kelishiga omil bo'ladi. Bundan tashqari, futbol klublari homiylar bilan shartnomalar tuzib, reklamadan katta foyda ko'radi. Futbolchilarning transferlari ham mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli daromad keltiradi.

Futbolning sehrli kuchi shundaki, u odamlarni birlashtiradi. Bugun O'zbekistonning qaysi go'shasiga bormang, barchaning tilida bir mavzu – Jahon chempionati. Ko'chalarda, xonadonlarda, ijtimoiy tarmoqlarda milliy terma jamoamiz liboslarini kiygan, bayrog'imizni baland ko'targan yurtdoshlarimizni ko'rish mumkin. Jamoamiz yashil maydonga chiqib, davlatimiz madhiyasi butun dunyoga yangragan soniyalarda har bir o'zbekistonlikning qalbi g'ururga to'lishi, ko'zlariga sevinch yoshlari



Biz hamma sohada dunyoda munosib o'rin egallashga intilyapmiz. Sportchilarimiz buni tezroq yetkaza oladi. Sizlar irodali g'alabangiz bilan, xalqimiz mehnat qilsa, harakat qilsa, hamma narsaga qodirligini yana bir bor isbotladingiz. Butun dunyo sizning timsolingizda azm-u shijoatli, g'ururi baland, hech qachon itilishdan qaytmaydigan Yangi O'zbekiston avlodini ko'rdi. Endi futbolni hozirgidan ham 2-3 karra ko'proq qo'llab-quvvatlaymiz. Siz kabi yoshlar xalqimizning ishonchi, Prezidentning quvonchidir.

Shavkat MIRZIYOYEV

kelishi shubhasiz. Bu – biz uzoq kutgan va haqli ravishda erishgan tarixiy lahzalardir. Ayniqsa, biznikilar qozongan muvaffaqiyat mintaqamiz, qardosh davlatlar, va hatto, sobiq Ittifoq ishqibozlarini ham birlashtirganini aytmaymizmi? Ijtimoiy tarmoqlardagi qozoq, turk, qirg'iz, tojik, turkman va boshqa xayrixohlarning "Biz O'zbekistonni qo'llab-quvvatlaymiz! O'zbekiston bizning jamoa!" degan his-hayajonli izhori ko'ngillarini ko'rib, eshitib qalbi faxr-u g'ururga to'lmagan yurtdosh topilmasa kerak. Yoki futbolchilarimizni taqdir taqozosi bilan ummon ortida yashayotgan do'stlarimiz qanday kutib olishganini ko'rgandirsiz?

Ishqibozlarimiz doirasi mamlakatimiz chegarasidan chiqib, ko'z ilg'amas hududlargacha kengaygani chin!



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning futbol bo'yicha milliy terma jamoamizni Jahon chempionatiga kuzatish marosimida shaxsan ishtirok etgani esa shunchakli sport tadbiri emas, balki butun boshli millatning chorak asrdan ko'proq vaqt davomida kutgan eng ulug' orzusi ushalgan tarixiy burilish pallasining yaqqol tantanasi bo'ldi. Davlatimiz rahbarining futbolchilarimizni yirik sport forumi sari duo berib kuzatishi, ularning har bir g'alabasini o'z farzandining muvaffaqiyatidek qalbdan his qilib, bayram qilishi xalq va Prezident o'rtasidagi samimiyat ko'prigi qanchalik mustahkam ekanini yana bir bor isbotladi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida faqatgina maydondagi futbolchilarni emas, balki ularning ortida turgan eng yaqin insonlarini ham alohida e'tirof etdi. Prezidentning futbolchilarimizni tarbiyalagan ota-onalarga, ularni yo'lga solgan fidoyi murabbiylarga butun xalqimiz nomidan chuqur minnatdorlik bildirgani zamirida teran insoniylik va azaliy qadriyat jamuljam.

Oldinda vakillarimizni Portugaliya, Kolumbiya va Kongo kabi jahon futbolining kuchli va tajribali vakillariga qarshi muhim bahslar kutib turibdi. Raqiblar qanchalik kuchli bo'lmasin, Davlatimiz rahbarining futbolchilarga qaratayotgan mana bu so'zlari yig'itlarimiz qalbidagi o'chmas olov yoqdi: **"Shuni bilingki, biz doim sizlar bilanmiz!"** Bu so'zlar – shunchakli dalda emas. Bu – maydonda kurashadigan 11 nafar yigitning ortida 38 (har biriga uch yarim) milliondan ortiq jondosh turganini eslatuvchi chaqiriqdir.

Prezident o'z nutqida juda hayotiy haqiqatni tilga oldi: futbol O'zbekistonda allaqachon har bir oilaning samimiy do'stiga aylanib ulguragan. Bugun yurtimizda millionlab insonlar futbol bilan nafas oladi, uning quvonchidan sarxush bo'ladi, tashvishiga sherik bo'ladi. Futbol bizni birlashtiradi, jipslashtiradi va yagona bayroq ostida bir tan-u bir jon qiladi.



Mundial sari yo'lga chiqqan milliy terma jamoamiz a'zolari! Endi hech bir yurtdoshingiz sizning o'yiningiz natijasini gardkam taxmin qilib, o'chiq oynayi jahon qarshisida yurak o'ynoqi bo'lib o'tirmaydi.

Siz dunyoning eng olis nuqtasida to'p sursangiz-da, har soniyada yurtimizning issiq taftini, ota-onangiz duosini va Prezidentimizning yuksak ishonchini his qilib turing. Oq yo'l sizga, Vatan o'g'lonlari!

"Oq bo'rilar"ning zafarli yurishi Shimoliy Amerika yashil maydonlarini titratsin!

Maydonda kim raqib bo'lishidan qat'i nazar, yig'itlarimiz ortga chekinmasligiga, yurtimiz sha'nini munosib himoya qilishiga ishonchimiz komil. Biz ulardan nafaqat chiroyli o'yin, balki katta g'alabalarni ham kutishga haqlimiz. Butun bir mamlakat, millionlab muxlislar ularni qo'llab-quvvatlashga tayyor!

Bayrog'imiz Shimoliy Amerika osmonida hilpiraydigan kunlar keldi.

Olg'a, O'zbekiston!

Iqbol MIRZO,
milliy jamoa ishqibosi





Boshlanishi 1-sahifada.

Ularga shirmonpazlik ko'p avlodlardan asl meros bo'lib o'tib kelardi. Shoshda aksar hunarmandlar kitobparast va ilmparast ham bo'lishardi. Amakilarim o'z zamonasining gazetlarini o'qib o'tirishar, ammalarim qalin matodan tikilgan xaltalaridagi bir turli kitoblarni qarindoshlarini ko'rgani borganda jam bo'lib o'qishardi. Ashulaga o'xshatib mutolaa qilishar, ora-orada hammalari yig'lab-yig'lab olishar va ko'zyoshlarini ro'mollarining uchlariga artishardi.

Otam urushdan qaytgach, tandir qurib mahallaning ehtiyoji uchun non yopa boshladilar. Mahalla oqsoqoli: "Usmon aka, mahalla-guzar noningizni juda sog'ingan. Hunarni yo'lga qo'ying", deb bir necha marotaba mahalla ahlining iltimosini dadamga yetkizgan ekan. Men shundan keyin otam qarib qoldi deb, unga xamir qorishga qarasha boshladim.

Katta mis tog'orada birinchi xamir qorgan kunimni esim kirgan vaqt deb hisoblayman. Chunki qarib qolayotgan otamga yordam berishim kerakligini o'zim anglab yetdim. Kechasi soat uchlarda turib mis tog'orada ham kaftlarim, ham bilaklarim va, ayniqsa, tirsaklarim bilan ishtiyoyoqim jo'sh urib shirmoy xamirini qordim. Otam nima qilish kerakligini ko'rsatib turdi, o'zi tandirga ko'mir qalash bilan shug'ullandi. Keyin men qorgan xamirni yana boshdan ikki-uch ag'darib, rosa pishitdi. Xamir mis tog'orada gumbazday bo'ldi. Otam kafi bilan tepasiga urgan edi gum-gum degan ovoz chiqdi. So'ng ustini qalin mato bilan o'rab qo'ydi: "Ana endi birpasdan so'ng yetiladi, o'g'lim", dedi. Xamir yetilgach, zuvala uzdi va menga kulcha tayyorlashni o'rgatdi. Menga bu ish juda ma'qul tushdi. Ammo qattiq uyqim keldi va non yasay turib uxlab qoldim. Otam kuldi: "Bor, o'g'lim, endi uxlay qol", dedi. Men ayvondagi o'rnimga yotib toshday qotib uxladim.

Men ana shundan beri o'z xamirimni o'zim qoraman. Lekin qari otamga ilk bor qarashganim hech esimdan chiqmaydi.

Biz maktabda beshinchi sinfni bitir-dikmikin, yo oltinchi sinfni bitirib, yettinchiga o'tdikmikin, may oyinging oxirlariga borib ta'tilga chiqdik. Oxirgi o'qish kuni shunchaki quruq xayrlashib ketish va shu bilan uch oygacha ko'rishmaslikni o'zimizga ep ko'rmadik. Hammamiz yozda nima qilishimiz haqida chuvurlashib gaplashdik. Bizning sinfda mahallamizdan besh-olti bola o'qirdi. Sebzor, Tarnovboshi, Taxtapul, Yangiariq tomonlardan ham bolalar kelardi.

Sebzordan Erkin kelardi. U juda parang kiyingan bo'lardi. May oyida ham, umuman, bahor oylarida kunlar isiganda, Erkin yo jujuncha, yo kalaminka matodan chiroyli, o'ziga juda yarashadigan kostyum-shim, oq yoqa-yengilari toza ko'ylak, o'sha paytda urf bo'lgan qalin latta shippak kiyardi. Men sinfimizda ozodalikka mas'ul edim, Erkinning bu shinam kiyinishiga doim e'tibor berardim. U yumshoq yurar, yumshoq so'ylar, shaxmat, matematika, adabiyot to'garaklaridan boshqa o'yinlarga qatnashmasdi. Sinfimizda uni hammamiz atqli o'quvchi deb tan olgan edik.

Maktabda bizga yuqori sinflarda o'qiyotgan Sayyoro'lat Fayzullayev (keyinchalik Sayyor taxallusi bilan mashhur bo'lgan), Erkin Qosimov singari oltin kelajakli o'quvchilar yetakchilik qilishar, dramto'garaklarga boshlab borishar, Oybek, Mirtemir, G'ayratiy, Quadrat Hikmat, Quddus Muhammadiyga singari mashhur shoirlar bilan maktabimizda uchrashuvlar uyushtirishar, turli bayramlarda ma'ruzalar, she'rlar o'qishar, "Alisher Navoiy" nomli juda mashhur dramada rollar o'ynashga jalb etishardi. Sayyor Erkinni Labzakdagi mashhur o'quvchilar saroyidagi adabiyot to'garagiga o'zi boshlab borib a'zo qilgan edi. Erkin bu o'quvchilar to'garagida ustoz G'ayratiy domladan adabiyot va she'r yozish qoidalarini puxta o'rganib olgandi. U "Alisher Navoiy" dramasida Mo'min Mirzo rolini o'ynab maktabda shuhrat qozongan, hammamiz, to'g'risi, unga ortiq havas qilib qarardik.

Erkin esa o'ta kamtar, o'ta odobli, butun xatti-harakatlarida tabiiy nazokat yog'ilib turardi. Yangi yil, May, Oktyabr bayramlarida she'rlaridan o'qir, she'rlari devoriy gazetada chiqqanda, o'quvchilar duv-duv kelib ko'plari ovozin baland ko'tarib o'qishardi. Erkin esa "E-e..." deb o'zini nihoyatda kamsuqum tutardi. Uni maktab o'quvchilari qanchalar yaxshi ko'rsa, o'qituvchi muallimlarimizning ham Erkin deganda og'zidan bol tomodi. Bo'ladiqan bola boshidan ma'lum, deb baxtli bashorat qilishardi.

Ammo shunchalar bo'lsa ham, Erkinning tiniq ko'zlari g'oyatda ma'yus boqardi. Og'ir yuk bosganday yelkalarini doim uchirib yurar, go'yo bu yukni yelkasidan itqitib yubormoqchiday bo'lar, ammo bunga murg'ak kuchi yetmasday edi. Erkin bu sirli yuk zalvorini umr bo'yi his qilib yashadi. Bir zumga bo'lsin undan o'zini xoli sezmadi. Bu yukning og'irini nima bilandir yengishim kerak deb o'ylardi u muttasil. Juda erta chog'idan ichi yig'lab, faryod go'yo ko'ksidan otilib tursa ham, dard-u g'amga kulib, tik qarashga o'rgandi. Dardlarini doim bolalik quvonchilari ichiga yashirishni odat qildi. U do'stlariga juda hazilkash, so'zamol

ko'rinaradi. Turli hayotiy holatlarga g'oyatda kutilmagan kulgili, latif ta'riflar berib qolardi. Ta'riflar ich-ichidan do'lday yog'ilib kelardi. U aslo chiranmasdi, ta'riflar yuragidan dur bog'lab chiqayotganga o'xshardi.

Xotira hikoyamizni qirqinchi yillarning oxirida gilos, o'riklar pishib, bog'lar yashnab, yoz chiqqanidan boshlamoqchi bo'lgandik. Taxtapuldagi 22-o'rta maktabimiz ro'parasida boloxonalik pochta binosi joylashgan, pochta bilan maktabimiz darvozasi orasidagi yo'ldan lshchilar shaharchasi degan oxirgi bekatga 10-tramvay qatnaydi. Bu yo'lga Eski Jo'vadagi bosmaxona aylanasiidan boshlab tosh to'shalgan, tramvay izi shu tosh yo'lga yotqizilgan. Erkin Sebzor bekatidan tramvayga chiqib maktabga qatnaydi, pochta oldida tushib qoladi. Sebzor, Oxunguzar singari bekatlardan chiqqan ba'zi sho'x bolalar tramvay hali pochtaga yetmay undan sakrab tusha boshlaydilar. O'zlarini o'ngolmay yiqilganlari, oyoq-qo'llari shilinganlari ham bo'ladi. Lekin Erkin hech qachon tramvay bekatda to'la to'xtamay undan sakrab tushgan emas.

Keyin tramvay picha aylanib, Taxtapulning ko'prigidan guldirab-g'iyqillab aylanib o'tadi va oxirgi bekatiga guldirab jo'naydi. Taxtapuldan Kalkovuz suvi oqadi. Ko'prikdan keyin u ikki tarmoqqa bo'linib, bir tarmog'i Qichqiriq jari va shovvasi tomon yo'l oladi. Ikkinchi tarmog'i g'arbga qarab oqib Qizil Qo'shin, Qumloq, Xasti imom, Guruchariq tomonlardagi chuqur vahimali jarlarga jo'naydi. Ko'p aylanalari va ko'priklari bor. Bizning bog'zor mahallamizning eski nomi

...Hatto kechalari qilolmay toqat,
Eshikka karayman,
Chekaman alam.
Intizor bo'laman,
Kelarmikan xat?
Men qaydan bilibman,
Yo'l bosar ekan

Mening murg'ak xatim
bekatma-bekat,
U yoqdan,
Xuddi u borar manzildan
Yo'lga chiqqan edi mash'um qora xat.

Erkin Vohidovning
"Nido" dostonidan

Teshik qopqoq, bu yerda tarixiy qadim mozor elning ziyoratgohi. Men shu Teshik qopqoq bog'ida tug'ilganman.

Men el-yurtning og'zidan eshitdimki, Erkinning ota-onasi shu mahallamizdagi Teshik qopqoq qabristoniga qo'yilgan. Ilgari Sebzor, Tarnovboshi singari mahallalardan mayyitlar Teshik qopqoqqa olib kelingan – ularga shu yerdan joy ajratilgan.

Erkin sakkiz-to'qqiz sabiy yoshida avval otasi Cho'yanboy akadan, so'ng onasi Roziya bibidan ayrilgan. Ota-ona qir-qir besh yoshlarida urush fojialariga duchor bo'lib, Toshkentda olamdan o'tishgan. Erkin avval ota tobutiga, so'ng onasiga ergashib Teshik qopqoqqa kelgan. Lekin oradan yillar o'tib, elliginchi yillar ham yetib kelib, otasi va onasi qayerga aniq qo'yilganini esidan chiqargan. U: "Ibrohim, mening ota-onam Teshik qopqoqqa qo'yilgan, lekin qayerdaligini bilmayman. Qidirib topsak bo'larmikin? Sen o'sha yerda turasan-ku, a?" deb so'ragan. "Asad, Fayzulla, Mansur, Sobit, Sayfilar – hammasi bizning mahalladan, so'rab topamiz, albatta", deb uni yupatdim.

Mana endi maktab o'qishidan ta'tilga chiqib, hammamiz sinfdoshimizni mahallamizga mehmonga chaqirishni niyat qildik. Ta'tildan bir kun oldin peshinda Kalkovuzda cho'milmoqchi bo'ldik. Qizil qo'shin degan joyda, 119-maktabning orqa tomonida Kalkovuz oqib o'tadi. Kanal qazilganda chiqarib tashlangan tuproq usti baland, tor piyoda yo'lga aylangan. Bu yerda katta charxpalaklar o'rnatilgan va ular maktab bog'i va mahallaning bir qismiga suv chiqarib beradi. Charxpalaklar juda baland, vahimali va ko'p suv tortadi. Mana shu Kalkovuz bo'yi kamqatnov yo'l, yoz o'tobida kun bo'yi qizib yotadi. Bolalar bu yerda cho'milib, qizigan tuproqda yotishni yaxshi ko'rishadi. Biz Teshik qopqoqqa borishdan oldin mana shu yerda Erkin bilan birga yig'ildik. Quyosh o't purkaydi. Kalkovuz suvi muzdak, tiniq va rohatijon. Hammamiz toza quvalashib, o'bdon cho'mildik. Sharshara tomonlardan oqim bo'ylab oqib keldik.

Erkin charxpalak tagiga guvillab kirayotgan oqimdan sho'ng'ib o'tmoqchi bo'ldi. Uni qaytarishga ulgur olmay qoldik. Suv shiddat bilan uni charxpalak tagiga olib kirib ketdi. Charxpalakning katta chelaklaridan guldirab, sharillab novga suv quyiladi. Erkin bir zum yo'q bo'lib ketdi. Hammamiz baravar qichqirib yubordik. Suv oqimi bizni shahd bilan oqizib ketyapti. Bir mahal qarasa, charxpalakdan o'n qulochlar narida Erkinning boshi ko'rindi, oqim uni aylantirib, girdobga solib, oqizib borardi. Hammamiz haygirishib unga tomon shitob bilan otildik. Asad chaqqon hammadan oldin unga yetib bordi va yelkasidan quchoqlab suvdan boshini ko'tardi va darhol qirg'oqqa qarab tez suzdi. Shilqillab qolgan Erkinni sohilga suyab olib chiqdi, o'tobga o'tqizdi, ko'krigidan bosgan edi, Erkinning og'zidan suv otilib chiqdi va u



boshladi. Hammamiz birdan yengil tortdik. U dir-dir qaltirar, bizga qaramasdi. Hammamiz uni silash, uqalashga tushib ketdik. Yarim soatlardan so'ng Erkin o'ziga keldi va o'tobda cho'zilib yotdi. Ko'kragiga qizigan tuproq tortti.

– Erkin, nega unday qilding, og'ayni? Ko'rmayсанmi, charxpalak odamni yamlab yutib yuboradi?!

– Charxpalakning ustiga chiqmoqchidim, – deb siniq kuldi Erkin. – Qarasam, tagiga kirib ketibman...

– Kallavaram! – dedi Muxtor. – Hammamizni qo'rqitib yubording. Birov senga charxpalakning ustiga chiq dedimi? Yo tagiga kir dedimi? O'lib ketsang nima bo'lardi?

– Charxpalakdan oshib o'tmoqchidim... – O'rtoq, joning tekinga qoldi, – dedi Asad. – Og'aynilar, bo'ldi, kiyinginlar. Endi biznikiga boramiz. Oyim mastava qilganlar. Keyin dam olamiz. Ertaga mozorni aylanamiz. Mozor ham juda vahima...

– Bolalar, Qumloqqacha uchta ko'prik bor. Hammamiz Qumloqqacha suzib bormay-mizmi? – dedi Muxtor.

– E, qo'ysang-chi, – deydi boshqalar chuvillashib. – Shu ahvolda Qumloqqa borib bo'ladimi?

– Lekin boshqa bir kuni albatta boraylik, ko'priklarning tagidan o'tish juda qiziq... Suv muzdek, qorong'i.

Hech kim bu taklifni qabul qilmadi. Lekin keyinroq g'ildirak kameralarini topib kelib, Taxtapuldagi sharsharadan Xasti imomgacha oqib bormoqchi bo'lishdi. Bunga hamma rozi bo'ldi.

Muxtor – Erkin bilan doim bahslashib yuradigan qiziqqon sinfdoshimiz. Doim Erkinni shaxmat o'ynashga tortadi. Keyin yutqizsa, alam qilib janjallashadi. Doim Erkinga teskari gaplar aytadi, Erkin algebrani, ona tili va adabiyotni undan ko'ra chuqurroq tushunadi. Lekin Muxtor buni hech tan olgisi kelmaydi. Algebra domlamiz Nosirxon aka doim ularni yarashtirish bilan ovora. Erkin algebrani Xorazmiy yaratganini aytsa, Muxtor: "Yo'q, noto'g'ri algebrani Xayyom yaratgan", deb o'qigan kitoblarini so'ylab ketadi. Nosirxon domla Erkinning fikriga qo'shiladi. Ana undan keyin Muxtorning jig'biyoni qichqishni ko'ring. Keyin Muxtor katta injener olim bo'ldi. Arab mamlakatlarida ishladi. Kaspiyda cho'milib, to'lg'inlar orasida qolib ketdi...

Yettinchi sinfimiz hammasi shunday kashshof bolalar. Ko'plari ixtirolar qilishga qiziqishadi.

Elliginchi yilda "Qizil O'zbekiston" gazetasida Stalinning "Tilshunoslik masalalari" degan katta shov-shuv bo'lgan risolasi chiqqanda, kutubxona gazetasini olib Erkin bilan birga o'qib chiqqanmiz. Gapning ochig'i, hech narsani tushunmaganmiz. Lekin miyamiz tilshunoslik va jamiyatshunoslik tushunchalari bilan to'lib-toshib ketgan. Erkin o'shanda taniqli jurnalist tog'asining nima

aytib berdi. Tog'asi: "Tushunmasanglar ham o'qiyveringlar, miyalaringda bir narsa qoladi. Keyin hayot o'zi tushuntiradi", deb aytgan ekan. Bu so'z bizni juda o'ylatib qo'ydi.

O'sha yili Oybekning "Oltin vodiyan shabadalar" romani chiqdi. Erkin bilan uni ketma-ket o'qidik. Gapning ochig'i, "Tilshunoslik masalalari"ni o'z holimizcha o'qiganimiz uchun bizga "Oltin vodiyan shabadalar" tushunsa bo'ladiqan asardek tuyulgan. Ammo Izzat Sulton degan katta olimning roman haqidagi "Qizil O'zbekiston"da bosilgan maqolasini o'qigach, yana qayta boshdan chalg'ib ketdik. To'g'ri-to'g'rimas fikrni topolmay qoldik. Lekin baribir unchalik tushunchamiz yetib bormasa ham o'sha paytlardagi ruscha, o'zbekcha turli kitoblarni o'qiyverardik. "Mening ko'rganlarim" degan kitob esa bizga dunyoning shedevri bo'lib ko'rinaradi.

Erkin qanday qilib shunday bahaybat charxpalak tagidan o'tish xayoliga kelib qolganidan o'zi hayron bo'ldi: "Nega o'rtoqlarimni qo'rqitib yubordim? Yaxshimas! Nimadan qutulmoqchi bo'ldim?"

U yuragining tubida doim allaqanday xavfli bir narsadan qutulmoqchi bo'lib yurar, lekin buning nima ekanligiga o'ziga hisob berolmasdi, bu ongiga sig'masdi, ammo shunday qorong'i bir muhamlik mavjud edi. Olamshumul fikrlar bir zumda paydo bo'lar va yuzaga chiqmoqchi bo'lar ekan-da, tavba. Bu aqlsizlik. Aqlni yo'qotish... U bir zum juda qattiq o'yladi, so'ng o'ziga dedi: "Bunga hech qachon yo'l qo'yma. Aqlsizlikka yo'l qo'yma... – uning boshi qattiq qisirlab og'ridi. – Aqlsizlik!.. Aqlilik va aqlsizlik. Bu nima o'zi? Aqlli nima-yu aqlsiz nima? Biologiya muallimimiz aytganday, bunga nimalar kiradi? Chegaralari bormi? "Charx tagiga kirdim-u g'arqi ob bo'ldim..." Iy-ya! Bu nimasi? Bu qayerdan? Nega miyam g'uvillaydi? Nega qulog'im chip bitgan va yana shang'illaydi? Biz tor aylana, egri-bugri yo'llardan Teshik qopqoqqa ketyapmiz shekilli? Qarang, hammamizning yo'li bastimiz baravar ekan. Faqat kim to'laroq, kim ozg'inroq. "Yoshgina onam yodi ko'zimdan moviy Kalkovuz bo'lib oqdi..." Iy-ya! Endi bu qayerdan paydo bo'la qoldi? Boshim qisirlayapti".

U kaftini qulog'iga bosganacha yo'l-yo'lakay bir oyoqlab sakray boshladi. Ikkala qulog'idan ozgina-ozginadan muzday suv tushdi. Ikkala qulog'i pichir-pichir qilib ochilganday bo'ldi. Birdan bolalarning gap-so'zlarini aniq-taniq eshita boshladi. "Xasti imomga ham boraylik. Erkinga Xasti imomni ko'rsatamiz. U yerdagi chinorni, eski mozorni, machitni ko'rsin..." , derdi kimdir, chamasi Sobit.

"Xasti imom.... Rost.... Xasti imomni ko'rmaganman. Katta, chiroyli maqbara bor emish... Hazrati imom.... Ko'rmaganman.... Billayman.... Nega charxpalak tagiga kirdim? Rost, tez oqim olib kirib ketdi... Lekin bolalarga qo'shilib yonidan suzib o'tib ketsam bo'lardi-ku, a? Nega unday? Kalkovuzning laziz ko'k suvi onamday mayin tuyuldi. Onam kiyimlarimni o'zi

qunt bilan tikar, o'zi kiydirardi". U andak ichida uyalib ketdi. "Bola paytlarimda o'zi tovonlarimni qattiq uqalab, barmoqlarimni qasirlatib, og'ritib cho'miltirardi. Dunyoda onadan ko'ra chiroyli narsa yo'q edi. Men doim unga termilib o'tirsam derdim. Xayolimga hozirgiday tushunib bo'lmaydigan qiziq so'zlar yog'ilib kelaverardi. Sayyor akam ularni satrlar deydi. "Satrlar kelaversa, yozib qo'yaver. Bir-biriga ulanib ketadi. Sen shoir bo'lasan, deydi Sayyor akam... G'ayratiy domla ham satrlarni ko'p gapiradilar. Shoir she'r yozadigan odammi? G'afur G'ulom, Quddus Muhammadiyga o'xshagan... Ular Chuvalachida turisharmish. Shu atroflarda. Tog'am bilan ko'rishib turishadi. Endi boshim aylanib ketyapti charxa o'xshab. Biron yerda birpas o'tirsak edi..."

Asad uning holini sezganday quchoqlab oldi. "Ya'in qoldi, Erkin. Hov anavi yerda bizniki..."

"Onamning katta-katta ko'zlari porlar edi. Menga juda mehribon... Ammo nega onamning so'zlari esimda yo'q? Chuldiroq soyim, derdi. Nima degani? Chuldiroq soy... Hovlimizdan chuldirab ariq suvi oqadi. Suv chuldiraydimi? Juda shirin edi onamning tili... Erta yo'q bo'lib ketdi. Erta yo'q bo'lishning tili shunday shirin bo'larmikin, e Xudo..."

Erkin onasi o'tganda, shu Xudo so'zini tinmay ichida qaytarib borgani esiga tushdi. Kimdir o'shanda uning qulog'iga "Xudoga yolvor", deb shivirlagan edi. Erkin bu so'zni kecha-kunduz ichida shivirlab aytadi. Ilgariroq otasi qazo qilganda ham ichida tinmay "E Xudo", degan. Teshik qopqoqning qalin tuproq, loy bosgan ko'chasidan o'shanda o'tgan. Lekin o'shanda ham xuddi bugungiday quloqlari chippa bitib, boshi aylanib... hech narsani eslolmaydi.

"Ota-onamni ko'rishim kerak. Ular shu yerda. Teshik qopqoqda, qabrda... ko'rishim kerak... ko'rishim kerak... ko'rishim kerak... sog'indim juda..."

Uning ko'zlari yosh pardasiga to'ldi. Oyoq ostini ko'rmasdi. Asadning bog'i yetib kelishdi. Asadning onasi bolalarni aylanib o'rg'ilib juda katta tut daraxti tagidagi baland supaga solingan ko'rpachalarga o'tqizdi. Chaqqonlik bilan kosalarida bolalar oldiga qatiqlangan mastava qo'ydi. Asad kulcha nonlarni sindirdi. Mastava qatiqlangan, kashnich-shivit, rayhon-yalpizlar mayda kertib solingan. Cho'milib ochqagan bolalar mastavani ishtaha bilan ichishdi. Mastava ichib tetiklashgan Erkin birpas ko'rpachaga yonboshladi. Ko'zi darrov ilindi. Chuvvos chug'urchuqlarning jon-jahd bilan chug'urlashayotgan tovushlarini eshitdi. Ilkis ko'zini ochdi va ulkan tut ustini qop-qora chug'urchuqlar bosganini ko'rdi.

Ular shiddat bilan shipirlab tut cho'qishardi. Supa usti duv-duv to'kilyotgan yirik-yirik tut donalariga to'ldi. Bolalar maza qilib ularni terib yeyishardi. Erkin ham bir-ikki og'ziga solgan bo'ldi. Tutning lazlatli mazasi birdan uning hushini to'la o'ziga qaytardi. Chug'urchuqlarning bu qadar shiddat bilan shatirlab tut yeyishlarini ko'rib u hayratga tushdi. Asad chelakni tesha



KUNLARI

bilan daranglatdi. Chug'urchuqlar osmon-falakka duv ko'tarilishdi. Supaga, hovliga gilamday bo'lib pishgan tutlar to'kildi. Asad laganga sara tutlarni terib, bolalar oldiga qo'ydi. Kimlar o'zlari yerdan terib yeyishdi. Keyin choy ichishdi. Hammalari tut, choy, mastavadan xushvaqt bo'lishdi. "Mozor aylanamizmi?" so'radi Erkin Asaddan sekin. Asad bosh qimirlatdi. Bolalar Asadlar bog'ining uzun, orasta uzum ishkamlarini aylanishdi. Chillakilar chumak ura boshlagan edi. Uzumzorni aylanib dimog'lari chog' bo'ldi. So'ng hammalari ko'chaga chiqib, mozor tomonga yurdilar. Erkinning yuragi juda qattiq dukillab urar, yuragining tovushini o'zi eshitar, yuragidan xuddi "onam... onam... onam..." degan sirli tovush kelayotganday tuyulardi.

O'smir yigitchalar edik. Balki hali yigitcha ham emasdirmiz... Yettinchi sinf chug'urchuqlari edik. Dardimiz ham, quvonchimiz ham olamga sig'masdi. O'sha paytlar mening o'n yetti yashar Abduvoris akam o'pkasi shamollab olamdan o'tgan, bizning xonadonimizda qiyomat qo'pgandi. Akam mahallamizdagi usta kosiblargacha shogird tushgan, u tikkan bejirim pishiq tufli, maxsilarning bozori juda chaqqon edi. U ba'zan cho'ntagimga qog'oz pullar solib qo'yar, men ularga Eski Jo'va bozoridagi kitob do'konidan kitoblar sotib olar, bu do'konni juda yaxshi ko'rar, tomosha qilib aylanib yurar, shu do'kondan juda katta, chiroyli, ichida turli cho'ntaklari ko'p charm papka sotib olgan, shu bilan maktabni tugatib, shu bilan universitetga ham o'qishga qatnardim. Xayolimda uning son-sanoqsiz cho'ntaklarini dunyoning eng qimmatbaho kitoblariga to'ldirardim. Shu mehribon akam olamdan o'tib, men singa urilib, osilib qolgan qaldirg'ochday shamollarda tebranib qoldim. Erkinga qaragan paytimda uning dardi armoni cheksizligiga amin bo'lardim, unga yaqin bo'lishga qandaydir insoniy ehtiyoj sezardim.

Dard odamni tez ulg'aytiradi. Dardli bola xuddi katta aqli odamlarga o'xshab fikrlaydigan bo'lib qoladi. Ota-ona dardi Erkinni xuddi kattalarday vazmin fikrlaydigan qilib qo'ygandi. Asli fe'l-atvori esa sho'xlik, quvnoqlik, zakilylik, sof zakovatdan qorilgandi. Bular unga ota-onasidan tub o'lmas meros bo'lib o'tgandi. Bular unga hamma narsadan ortiqroq bebaho tayanch edi. Ziyoli mushfiq tog'alari qo'lida tarbiyalanarkan, ota-onadan qolgan zakovat merosi uni bir zum ham tark etmadi. Tog'alari, maktabda, universitetda muallimlarning mehri uning tug'ma zakovatiga oltin sayqal berdi.

2. QIBLAGOHN QIDIRISH

Asadning ko'cha eshigidan chiqishimiz hamonoq ko'chaning narigi betidagi bog' yo'lak tomondan bizga qarab oq ishton, oq ko'ylak, boshiga oq iroqi gulli do'ppi kiygan Abduvohid degan bola uchib, yugurib kela boshladi. Kela solib hammamiz bilan quyuq quchoqlashib ko'rishdi, ayniqsa, Erkinni anchagacha bag'riga bosib turdi. Mahallamizga Erkinni chaqirib mehmon qilishga kelishganimizdan Abduvohidning xabari bor edi. Erkin Teshik qopqoq bog'lariga mehmonga kelishga rozi bo'lganidan u juda suyuqan, og'zi qulog'ida, odatdagiday G'afur G'ulomning "Tongotar qo'shiqlari" suratli kitobini ko'tarib olgan. Bu jonajon sinfdoshimiz kitob desa o'zini osmondan tashlardi va doimo qo'lidagi kitobni baqirib, ko'chalar, maktab hovillari, tanaffuslarda sinflarda o'qib yurardi. So'filardan unga bir narsalar o'tganmi, bilmadim.

– Erkin, do'stim, xush kelibsiz, xush kelibsiz Teshik qopqoq bog' mahallamizga! Qani, yuringlar. Manavi devorlarning orqasi bizning bog'imiz. Aylanib chiqasilar.

Darvoqe, Abduvohidlarning bog'ida faqat yarmi sariq taram-taram qimizak olmalar o'sib yotadi. Olmalar yapaloqroq, juda tatti shirin, tishlasangiz, oppoq ko'piklari qarsillab otilib ketadi. Abduvohidning otasi Mavlon qori aka bu olmalarni maxsus o'stirgan, ularning har biri taldanoq uxtas katta shoxga ajralib o'sadi. Juda baland. Uchiga qarayman desangiz, boshingizdan to'r do'ppingiz tushib ketadi. Har bir olma daraxtining tagiga kichkina ariq tortilgan, ularning hammasidan suv jildirab oqib yotadi.

Mavlon qori amaki juda baland bo'yli, yelkalari keng, barvastaa amaki. U doim juda ozoda kiyinib, to'n yo mursakda yuradi. Ammo mahallada juda kam ko'rinadi. Bu yerdan sal nariorqda uning xuddi o'ziga o'xshagan akasi Jamil qori amakinining ichkari bog'i bor. Jamil qori amakining yelkalariga devlar minib yuradi, deyishadi. Qori amaki ham mahallada kam ko'rinadi. ikkovi amaki ham pahlavonlarday kelbati bilan xuddi sohbiqron Temurga o'xshab ketishadi. Biz o'smirlar Amir Temurni ko'rماغan bo'lsak-da, ichimizda baribir Temurga o'xshagan odamlar bor-da, deb o'zimizga daldal berib yuramiz.

Guzarimizdagi choyxona – (Teshik qopqoq qizil choyxonasi, bolalar uni qulub ham deyishadi). Bir qavatli qulubning ichiga qizil alvonlar osilgan, ularga saylovlarning shiorlari

yozilgan, bu yerga bir qancha gazetalar keladi. Shaxmat taxtalari bor. Ortiqvoy amaki choyxonachi va qulub mudiri. Undan so'rab shaxmat o'ynaymiz. Gazetalarni varaqlab o'qiyimiz. Mahallamizning ko'p qariyalari choyxonada choy ichib, dunyoning ishlaridan gurunglashib o'tirishadi. Jamil qori amaki bilan Mavlon qori amakinikiga ba'zi vaqtlar ikki milisa, mahalla oqsoqoli, mahalla kotibi va bitta mahalla faoli kelib allanarsalarni surishtirishadi. Qo'llarida daftar-qalam. Lekin ko'pincha Jamil qori amaki ham, Mavlon qori amakim ham uyda bo'lishmaydi. Uydagilar Avliyo otaga ketishgan, Turkistonga ketishgan, Orenburxga gilam sotgani ketgan deyishadi. Qachon kelishlarini aytishmagan, deb javob berishadi. Abduvohiddan eshitgan gapimiz shuki, aka-uka qorilarni o'sha paytlardagi "ishchi batalion"ga xatlashgan ekan. Ishchi batalionlar Ukraina, Qozog'iston, Ural, Sibir tomonlarga jo'natilar ekan. Keyin ulardan hech darak kelmas ekan. Abdujamil qori amaki bilan Mavlon qori amakini mahallamizda eng ko'p kitob o'qiydigan odam deb bilishardi. Abduvohid o'rtog'imiz kitobga o'chlikda otasi va amakisiga tortgan edi. Erkin Abduvohid bilan qon-dildan sevinib, chaqchaqlashib ko'rishdi. Ikkovlari darrov "Tongotar qo'shiqlari" bilan Quddus Muhammadiyning bolalarga yozgan quvnoq she'rlari ustidan yod o'qishib, gaplashib ketishdi.

Hademay, Teshik qopqoq mozorining berigi kichik darvozasiga yetib borishdi. Erkin: "E, mana keldik mozorga yetib..." Bu ko'hna kichik darvozani u elas-elas esladi. Darvoza haddan tashqari eski, bir zamonlar unga o'yib solingan turli gajim naqshlar qorayib tund tusga kirgan, yorilgan, lekin hali mustahkam edi.

"Otam ham shu darvozadan kirgan, onam ham shu darvozadan kirgan. Men ham o'n to'rt yoshimda shu ko'hna darvozadan kirib boryapman... Ammo ota-onamni olib kelganimizda qayoqqa olib borgan edik, o'lay agar, esimda yo'q. O'shanda to'qqiz-o'n yashar bo'lsam kerak. Hushim boshimdan uchgan. Ko'zim to'la jiqqa yosh, o'zim hech narsani anglamas, butunlay garang edim. KiteIcham ustidan belboq boylashgan, boshimda guldor do'ppi, yozmidi, kuzmidi, bahormidi, har holda qish emasdi. Tobut ko'targan izdihom aylanib aylanib daraxtlar, butalar orasida to'xtadi. Qabr qazilgan edi. Sho'rlik og'ir yarador otamning qabri. U, gavdali komissar azob chekaverib kichkina, yep-yengil bo'lib qolgan edi. U yerda juda katta qo'noq tut daraxti tarvaqaylab o'sgan edi. Mevalari yerga gilamday to'kilib sariq magiz bo'lib qolgandi... Esimda... Shu bahaybat qo'noq tut yaqinida... esimda... Men qabrga tuproq tashlayman deb, unga sirg'alib tushib ketganman... Yaqinda Kalkovuz bo'yida o'tirib, xayolim qochib suvga sirg'alib tushib ketganimday... esimda..."

Onajonim ham... keyin... esimda. Onajonim ham shu yaqin yerda bo'lishlari kerak. Lekin bilmayman... Onajonimni bilmayman... unda hech narsani bilmayman... badbaxt... Nega keyin tog'alarimdan so'rab olmadim? Riqsivoy tog'amdan so'ramadim?.. Karimboy tog'amdan so'rab bilmadim?.. Nega? Nima menga xalal berdi? Nega tortindim? Buning nimasi noqulay edi? Nega tog'alarim bilan bu yerga to'rt-besh yil ichida biron marta kelmadim? Nega? Nega? Nega axir???"

Mozorni may oyida juda qalin, odam bo'yi baravar qalin o't bosgandi. Men darvozaxona yonidagi mozor xodimlari, ishchilari bo'ladigan katta xona eshigini ochib qaradim. Mozor xodimi – yaqinda urushdan ikki oyog'i, juda og'ir ahvolda qaytgan Ismog'il o'ta ketmonini tozalari va katta egov bilan egovlardi. "Iye, kel, Usmon akamning o'g'li, nima gap?" Men sinfdosh o'rtog'imiz ota-onasining qabrini ziyorat qilgani kelgani, lekin topolmayotganimizni aytdim. Ismog'il amaki: "Usmon akamning o'g'li, sinfdoshing qaysi mahalladan?" deb so'radi. Men: "Sebzor, Tarnovboshidan", dedim. "Qachon qo'yilgan?" dedi Ismog'il amaki. Men to'rt-besh yil bo'lgan, dedim. "O, unda men bilmas ekanman, Usmon akamning o'g'li... Unda men urushda edim. Men o'rtog'ingning ota-onasini bilmayman, holbuki, o'zim ham sebzorlikman. Bilasan-a, hammomning ko'chadesadi edi uyimiz. Shu yerda amallab ishlab turing deyishdi. O'zim so'rab oldim. Ota kasbimni qilay dedim. O'rtog'ingga ayt, janazoda qatnashgan kattaroq, biladigan odamdan so'rab-surishtirsin. U paytlar ko'pincha no'mirlar ham qo'yilmagan qabrlarga. Mana endi no'mirlashyapti. Ismi nima ekan sinfdoshingning ota-onasini? Cho'yanboy Vohidov deysanmi?" U o'yga botib to'mtoq qo'li bilan sochi to'kilib ketgan boshini qashidi. "Tarnovboshi degin? Yo'q, tanimas ekanman... Topilib qolar... O'rtog'ingga ayt: xafa bo'lmasin. Surishtirsa, topiladi. Ishqilib, esidan chiqib ketmabdi-ku!"

Men qator bo'lib qo'l ushlashib qalin o'tlar orasidagi qabrlarni qarayatgan Sobit, Fayzulla, Asad, Abduvohidning oldiga qaytdim. Ismog'il amakinining gapini tushuntirdim. Erkin bu

gapni eshitib, mozor o'rtasidan ko'tarma qilib o'tkazilgan ariq tepasiga holsiz o'tirib qoldi. Biz ham uning yoniga qator tizilishib o'tirdik. O'tlar orasida yuraverib nihoyatda charchagan edik. Lavha yozilgan qabrlarni izlab topolmadik. Juda oz qabrlarga lavha qo'yilgandi. Ko'p qabrlar cho'ka boshlagandi. Hatto Asadning bir oyog'i eski cho'kkan qabr ichiga tizzasigacha kirib ketdi. U voyvoyladi. Yugurishib borib tortib oldik.

Ariq bo'yida ma'yus tortib indamay o'tirarkanmiz, baland o'sgan, mayda-mayda mevalari sarg'aygan o'rik daraxtining tepasidan bir narsa shaloplab o'tlar orasiga quladi. Abduvohid o'midan turib qarab, "Sariq ilon!" Qabrga kirib ketdi. Og'aynilar, – dedi u ovozin pastlatib, – Sebzorni shuncha qaradik, topilmadi. Endi Ibrohim aytganday, biladigan odamlardan surishtirib, buni aniqlaymiz. Kattalardan so'raymiz..."

"Mening yuragim ichimga tushib ketdi. O'rtog'larim meni quchoqlab oldilar. Ular yelkalarim, boshim, qo'llarimni silashardi. Qachon yetaman ota-onamning visoliga? Qachon onam bilan dardlashaman? Axir, men onam yo otajonim bilan biron marotaba ham dardlashganim yo'q... Iy-ya! Onam hech gapirmasdilar. Lekin ko'zlarini mendan uzmasdilar. "Erkin sen... sen... sen... sen..." derdilar, lekin gaplarini tugatmasdilar. Bag'irlariga bosib, anchagacha qo'yib yubormasdilar. Men onamning nima deganlarini eslolmayman. Bag'irlarini eslayman. Issiq, qaynoq bag'irlarini eslayman. Onamning bag'ridan shirmoy nonning isi kelardi... Shuni eslayman... faqat shuni eslayman... Qip-qizil shirmoy nonday edilar onam... nazdimda... Juda chiroyli, juda yosh, xuddi qizaloqlarday edilar onam... Otam esa yosh yigitlarday juda kuchli edilar. Qaydan topaman endi ularni?"

Men bugun onamga she'rlar yoza boshlaganimni aytmoqchiydim. Muallima paytlaridagi kitoblarini o'qib chiqdim. Onam daryolar, dengizlar, tog'lar, orollarning nomlarini yaxshi ko'rib yodlab yurarkanlar. Qabristonlar, maqbaralarni adam sahosri der ekanlar... Onam bilan o'qigan bir sohbiqjamol hikoya qilib bergan edilar (**Muallifdan: Bu shoirning turmush yo'ldoshi Gulchehraxon Vohidovanning opasi. Gulchehraxon Vohidova keyinchalik so'rab-surishtirib Erkin Vohidovning ota-onasi qo'yilgan mang u maskanni aniqlab, xotira lavhalari o'rnatgan**) Nega? Nega? Nega adam sahosri? Yo'qlik, bebunyod der ekanlar? Bebunyod va yo'qlik nima? Nima degani? Mana bugun biz uchratgan narsa yo'qlik dunyomi? Shuning uchun shuncha yillar unutdimmi? Yo'q, unutmadim. Bir zum ham unutmadim. Negaki, juda tez-tez uradigan yuragimdan doim onamning ovozi kelib turadi. "Erkin sen... sen... sen..." deydi. So'zlarini tugatmaydi. "Erkin sen kim?" – deyman men doim o'zingma o'zim. Va onamning yuragimdagi ovozi bilan o'z-o'zimni tanib olmoqchi, kimligimni bilmog'chi bo'laman.

Onam mening kim bo'lishimni istar edilar? Kim? Qaysi kasb onamga yoqardi? Ona, shoir bo'lsam, rozilik berasizmi? Yo jo'g'rofiyun bo'lib sizni davom ettiraymi, ona? Yo sizning, ha, ayni sizning jonbaxsh tilingizda g'azallar bitaymi, onajon! Yo... Bu menga hozir juda muhim! Menga onam sirlar koni bo'lib tuyuladi. Bejiz Roziya bonu deiyshmagam. Bonular bonusi. Roziya bonu. Mening azal-abad Roz bonusi onam... Siz rozimisiz, onam, siz rozi – olam rozi, onam... Fanzardalar ota-onaning davomi... Ammo... qanday davomi? Dunyoning sir-asorini mana shunda. Ha, darvoqe, qanday davomi? Bu olamning juda katta gapi ekan-al"

Erkinning ho'ngrab, yer-u samolarni boshiga ko'tarib yig'ilagisi kelardi. Ammo u umrida yig'ilamagan, ko'zyosh nimaligini bilmaydi. U yosh zavolga uchragan otasi Cho'yan Vohidov kabi ruhi va vujudi matonatdan qorilgan, ojizlikni mutlaq qabul qilmasdi. Ha, mutlaq! Dunyoda shunday mutlaq narsalar ham mavjud. Matonat bilan birga Alloh unga matonatning tug'ishgan inisi – mango odamiy tabassumni ato etdi. U umri bino bo'lib bir ojiz satr yozmadi.

3. FARHOD ANORI

Mozordan hammamiz ma'yusgina bo'lib chiqqanimizdan keyin bir-birimizga qarab toza kulishibmiz, vo ajabo! Nega desangiz, hammamiz baland yovvoyi bug'doylar, yasmiqlar, qichitqilar orasida uch-to'rt soat izg'ishib, sochlarimiz, qosh-ko'zlarimiz, yoqa-englarimiz chang-g'uborga to'lgan, burun kataklarimiz ham bug'doyiqning oppoq to'zoniga to'lib, bir-birimizga ping'illab gaplashayotganimizni sezib qoldik va manqalarga o'xshab rosa kulishdik.

"Baribir, hammamiz har yoqqa tarqaymiz", dedi Sobit. "Busiz iloji yo'q. O'ninchini bitirsak, hammamiz har yoqqa chug'urchuqlarday tarqab ketamiz... Sobit, xo'p dono fikrni aytdingiz. Baribir, domlaning o'g'lisiz-da, aqlingiz g'ij-g'ij. Aha! Qayerdan olgansiz buncha aql-u farosatni? Bizga ham andakkina-andaklina ulashib, do'stim", ozgina hazilomuz gapini tugatdi Abduvohid. "Sendek og'aynimiz bo'lgandan keyin hammamiz aqli bo'lamiz-da, omma... –

dedi Mirsobit ham so'zamollikda qo'shnisidan qolishmay. – Omma, zamon dono". Uning bir odati "ammo" degan so'zni ko'p qo'llar va uni doim "omma" deb teskaricha qilib aytardi.

Bu yerda bizning yana bir do'stimiz, teng-to'shimiz bor edi. U ham xuddi Muxtor kabi Erkin bilan tez-tez bahslashib turar, Erkin unga "Anvar, muncha qulog'ing katta, gaping hech tugamaydi-ya", deb pishang berib qo'yardi. Anvarning bir odati u doim "ittifoq" so'zini "intifoq" deb talaffuz qilar, "G'afur G'ulom Nortojining kurak tishi og'rig'anini intifoqda birinchi bo'lib yozgan. U o'zining "Tirik murda" degan asarida tanbaling haykalini yaratgan", deb gapni yana G'afur G'ulomdan surar, uning G'afur G'ulomdan so'z ochmagam kuni bo'lmas, "G'afur G'ulom bizga qo'shni Chuvalachida turadi, Quddus Muhammadiy ham so'tta... Ular otam Otaboy Esonov bilan oshta, Kalkovuz bo'yidagi hovlimizga kelib turishadi. G'afur G'ulom odamni kuldirib o'ldiradi. Menga ham "ha, nosqovoq, yuribsanmi tovuq quvlab" deb hazillashib qo'yadi..."

Anvar Eshonov keyinchalik tili o'tkir jurnalist, latifago'y, hajviy-lirik yozuvchi bo'lib tanildi. U Erkin, Anvar Isroilov, Qora Ahmad, Jamol, Davron bilan birga o'qiganidan, tengdosh ekanligidan faxrlanib yurar, ulardan orqada qolmaslikka tirishar, meni Xalil Sulton haqida hikoya yozishga undardi. Holbuki, men qayda, temuriy Xalil Sulton qayda! Ammo Anvar Eshonovni o'sha paytlar Xalil Sulton bilan Shodimulk begimning giriftor ishq-muhabbati nihoyatda qiziqtirardi. Bu eng kamida Shekspir qalamiga mansub syujet degan fikrda edi. Anvar, Erkin va men bolaligimizda Janggoh bog'idagi yozgi teatrd "Otello" va "Hamlet" spektakllarini Abror Hidayatov va Olim Xo'jayev ijrosida ko'rganmiz, ko'p zamon shular ta'sirida jinniroq bo'lib yurganmiz. Anvar Tarzanga juda ishqivoz edi. U Vestmlyullerni og'zidan qo'ymasdi. G'afur G'ulomning ashaddiy "fanati", Tarzanni o'ynagan Vestmlyullerga ham goho taassuf qilganlarini sezib qolardik. Erkin Anvarni nechukdri o'ziga yaqin olardi. Anvar ham Erkinning o'quvchilik she'rlarini tilidan qo'ymay yodlab yurardi. Sho'x, dilovar yigitcha edi Anvar... suyuqli qurdoshimiz edi Anvar...

Mozordan yuqtirgan g'uborimizning hikoyasi cho'zilib shu yergacha kelyapti, qo'yib bersa, hali yana ancha davom etadigan... Men chang bosgan sinfdoshlarimga: "Erkin bu kecha biznikida qoladi. Tog'asidan so'rab kelgan", dedim. O'rtog'larim bu gapimni xayrixohlik bilan kutib olishdi.

Erkin qattiq xayolga botgandi. Butun vujudidan armonli hovur taralardi. Charxpalak xomush qilib qo'ydimikin, deb o'yladim. Lekin xomushligini yuziga solishni istamadim. O'tib ketadi, deb o'yladim. U quvnoqlik bilan ko'p qiyinchiliklarni yengadi, degan yana bir fikr xayolimdan o'tdi.

Hovlimizdagi ariq bo'yida, ikki tup oq olma tagida baland supa bor edi. Supaga ikkita katta qizil sholcha to'shalgan. Baland xontaxta atrofiga doim quroq ko'rpachalar solingan bo'lardi. Bog'imiz etagidagi katta-katta qator yong'oqlarning chetiga taxtalardan havoza qilib katta ko'k bochka o'rnatilgan, ichida doim suv bo'lar, kun bo'yi oftobda isir, yoz chog'lari kechda uning tagida cho'milish odamga mislsiz rohat bag'ishlardi. Erkin bilan bog' ichkarisiga o'tib, tabiiy dushda rohat qilib yuvindik. Kiyimlarimizni qichitqilardan tozaladik. Ungacha xufton kirdi. "Juda yaxshi bog' ekan", dedi Erkin atrof havo-manzaralardan zavqlanib. Unda boyagi ma'yuslikdan asar ham qolmagandi.

Biz ishkorlar orasidan o'tib, supaga qaytdik. Onam dasturxon yozdilar. Katta sopol laganda bug'i ko'tarilib turgan moshkichiri keltirdilar. Otamga ovqatni katta uyga berdilar. Akalarim ko'rinishmasdi. Onam, opam, Erkin va men birga o'tirib qiyma qaylali moshkichirini tanovul qildik. "Otang qayerdalar?" deb so'radi Erkin taomdan so'ng. Men: "Ichkari uydalar. Oldilariga kiramiz", dedim.

Oyim o'rtog'im Erkinning siniqligini payqab o'tirardilar. Ammo uni ko'p gapga solmadilar. Rang ko'r, hol so'r... Erkin, agar xohlasang, o'ying tomga joy solib beradilar. Tom juda katta, tekis, somonsuvoq qilingan. Narigi hovlidagi tutning yarmi shoxlari tom ustiga tushgan. Xohlasang, pishgan tutlardan yeymiz..." dedim. Erkin: "Bilmadim, qanday bo'larkin? Lekin bugun kun juda issiq bo'ldi. Tom g'ir-g'ir shabada bo'lsa kerak..." dedi. Men katta narvondan tomga sholcha, ko'rpacha va yostiqilarni olib chiqdim. Erkin ham sekin, biroz qo'rqibroq chiqib bordi. Tutning shoxlarida oppoq, yirik-yirik tutlar g'arq pishib yotardi. Shoxlardan terib, to'yib tut yedik. Ilgarilar Toshkentda, Eski shaharda yozning issiq paytlari hovlilarda yosh-yalanglar tomga joy solib uxlashardi. G'ir-g'ir rohatbaxsh shabada esardi. Sharq tomondan esgan mayin shabadani toshkentiiklar "sabo" deyishardi. Saboda tomda to'shak solib yotish ajib huzur kayfiyat bag'ishlardi. Biroz vaqt osmonni tomosha qilib yotdik. Osmondan g'uj-g'uj moviy, olovrang, qizil yulduzlar xuddi ustingizga yog'ilib kelayotgandek odamni bir xayol kayfiyat bosardi. Erkin bilan osmonga qarab yotib shunday xarosonlikni boshimizdan kechirmoqda edik.

Yarim kechadan oqqanda yulduzlarning kakhkashon shu'lalaridan mast-u mustag'raq bo'lib ko'zimiz uyquga ilindi. Bir vaqt sovuqtib, junjikib, havlnok bo'lib Erkin uyg'onib ketdi. Men ham sekgak yotgan edim, uyg'ondim, tun

sukunatida yulduzlar yopirilib, odamni qattiq vahima bosarkan.

Erkin: "Ibrohim, men yulduzlardan qo'rqa-yapman..." dedi ovozi qaltirab. "Bo'ldi, bo'ldi... pastga tushamiz. Ayvon issiq. Ayvonda yotamiz", dedim. Meni ham yulduzlarning qo'rqinchi chulg'agandi. Sovqotib qaltirardim. Erkin bilan oldma-keyin narvondan pastga tushdik. Onam uxlamagan ekanlar, bizga ayvonga qalin ko'rpato'shaklardan joy to'shab berdilar. Erkin anchagacha uxlay olmadi. "Ba'zan kechalarda hech uxlolmayman, – dedi u o'ringa yotganimizdan keyin. – Joyimni bir necha martaba o'zgartiraman. Baribir, uxlolmayman. Juda qiynalib ketaman..."

Men keyinchalik bu uyqusizlik Erkinni qanchalar qiynashini birga safarlarda yurganimizda sezdim. Uning ruhi doim uyg'oq bo'lar ekan... Kallasini turli sochiqlar, qiyiqilar bilan chambarchas o'rab-chirmab olardi. Shoirlik qismatimikin? Ildokorga xayoli uyqu bermasmikin?

"Odam o'lgandan keyin yulduzga aylanib qolar emish... – deb o'z tug'zman xayollariga g'arq edi bu payt Erkin. – Hozir osmonda ko'ringan sanoqsiz yulduzlardan biri, albatta, otam ... uning yonida mildirab ko'kimtir nur sochib turgani, albatta, onam... Men birinchi marta ularni shunday ayon ko'rishim... Yo'q bo'lib ketishgan deb yurardim-a... Birinchi marta yulduzli osmon ustimga bostirib kelganda birinchi marta otamni... onamni sezdim... Tinmay o'ylardim... lekin mana endi birinchi marta osmonni va cheksiz yulduzlarni sezdim. Ular xuddi jonimga kirib o'rtnashganday bo'ldi. Birinchi marta otam va onamni yulduzlarday ko'rdim. Ular men bilan gaplashganday ham bo'lishdi. Onam... Onam menga: "Erkin sen... sen... sen... mening sarguzashtimsan..." dedi. Men qo'rqdim. Onamning tovushidan qo'rqdim. "Erkin, sen... sening ko'zing bilan men dunyoni ko'raman, dunyoni tomosha qilaman, orzu qilgan orollarimga boraman", dedi onam. Birinchi marta men onamning orzularini eshitdim. Otam nimadir deb nido qildi. Mana hozir tomi berk ayvonda yotibman, Lekin otam o'sha samodan menga qarab turibdi. Meni nima qilarkin Erkin deb o'ylayapti..."

U hali tomda yotgan chog'imizda mening bir so'zimni esladi va unga endi ahamiyat berdi: "Erkin, senga bir yulduzni ko'rsataymi? Sen shu yulduzning ostida dunyoga kelgansan... U seni doim saqlaydi, qo'riqlaydi. Senga eng to'g'ri yo'lni ko'rsatadi".

"Endi esimga tushdi sinfdoshimning bu qiziq gap... Qayerdan biladi buni Ibrohim? U Yerni ham yulduz deyapti. Yer yulduzmi? Kurrami? Sayyorami? Yer – yulduz deydi Ibrohim. Biz hammamiz yulduzotlarmiz. Tungi bog'lar bizga shunday talqin etmoqda..."

Keyin tong qorong'isida qattiq va shirin uxlab qolibmiz. Ertalab tiniq, hushyor bo'lib uyg'ondik. Supada dasturxon ustida otam yopgan quyoshday charaqlagan shirmoy non. Bog'dan erta pishgan javzapak o'rik. Turshak, yong'oq, turli mag'iz, jydalar. Erkin dasturxon ustida biroz tortinganday muloyim o'tiribdi. U hamma vaqt biroz o'zini chetga tortib turganday holatda bo'ladi. Odat. Bu tabiiy odobning belgisi bo'lsa kerak. Erkin tortinbroq so'raydi: "Ibrohim, amakim nima ish qiladilar?" Tandir qurib, shirmoy non yopishimni aytdim. "Uyda dutorga ko'zim tushdi. Amakim dutor, muzika chaladilarmi? Eski odamlarning ko'pchiligi dutor, tanbur chalishadi. Mening ikkala tog'am ham dutor chalishadi. Lekin o'zlari yurist, jurnalist. Men ham dutor chalishni o'rganib olmoqchiman, sen ham o'rgan. Oyim, otam qarindosh-urug'lar kelishganda dutor chalib ularni o'yinga tushirishardi", Erkin shunda birdan hiqillab jim bo'lib qoldi. "Erkin, og'ayni..." dedim taskin bermoqchi bo'lib. Erkin o'ta matonatli bola. Uning ingichka labida nimtabassum paydo bo'ldi:

– Katta tog'am yaqinda, she'rlarimga katta qizlari tushgan ekan, meni o'z idoralariga taklif qildilar. Ishlaring tuzuk, Erkin. Maktab ilm-tarbiyasini yaxshi o'zlashtirypasan. She'rlaring ham odamga yoqimli. Ammo senga qadimgi bir rivoyatni aytib berish uchun chaqirdim. Uning mag'zini chaqadigan payting kelibdi. Shunda katta tog'am eski bir kitobdan bitta hikoyatni o'qib berdilar. Senga ham shuni aytib hikoyatni berdim:

"Vaqtaki, Farhod Zoli makkoradin Shirinning o'limi xabarini eshitti. Teshasin osmonga otib, kelurda boshini tutti, ersa ikki ayrib tog'ning kamariga sanchildi. Hamonoki, ul tessa dastasi hamul anor yig'ochidan ermish. Xudoyi taolo qudrati birla ul dasta anda ko'karib anor daraxti bo'lg'on ermish. Chun vaqti yetti ersa, mevasin ochib ko'rsalar, oshiqlar ko'ngli yanglig' kuygan va ichi to'la axgar ermish va balki xokistar ermish. "Sharafnoma"da manquldur".

Erkin, bu so'zning ma'nisini tushundimgi? Sen jiyanimga ham bu tub daxldordir. Men senga Farhodday bo'li, demayman. Ammo so'zing Farhodning teshasida bo'lsin, o'g'lim. Buni senga xuddi otam aytayotganday yodingda tut! Illo, boshingda ko'p ishlar bor... Biz, tog'alaring esa hamisha yoningdamiz. Hech qachon yolg'izlanib qolmagaysan. Senga bashoratim shu..."

Ibrohim G'AFUROV
O'zbekiston Qahramoni



DASTURXON VA DASTURILAMAL



Boshlanishi 1-sahifada.

2050-YILDA IKKI YO'L, IKKI TAQDIR

Fransiyalik Bernard Hyuber, AQSHlik Mark Rozgrant, gollandiyalik Van Boyekel hamda perulik Rodomiro Ortiz singari jahonning o'nlab yillar davomida oziq-ovqat xavfsizligini o'rganib kelayotgan olimlari 2050-yilga nisbatan ikki xil ssenariyni tasvirlab berganlar.

Birinchisini ular "Agrimonde GO" deb atamoqda: bu dunyo iqtisodiy o'sishni hamma narsadan ustun qo'yadigan yo'ldir. Bu yo'lda aholi jon boshiga sutkalik kaloriya miqdori o'rtacha 3590 kkalgacha oshadi, go'sht va mahsulot iste'moli keskin ko'payadi, ammo yer va suvning cheklavlari inobatga olinmaydi. Oqibat vahimali: tabiat halok bo'ladi va boy davlatlar semirayotganda, kambag'al mintaqalar ochlikka qarshi kurash olib boradi.

Ikkinchi yo'l – "Agrimonde 1", ya'ni barqaror rivojlanish yo'li. Bu yerda jahon bo'yicha har bir odamga kuniga 3000 kkal – teng, adolati va ekologik jihatdan oqilona oziq-ovqat ta'minoti maqsad qilingan. O'simlik mahsulotlari parhezning asosini tashkil etadi, suv tejraladi, yer muhofaza qilinadi, chakana dehqonlar ham bozorga chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xo'sh, O'zbekiston qaysi yo'lni tanladi? Amaliyot ko'rsatkichlari bir javobni beradi: "Agrimonde 1", ya'ni ikkinchi yo'lni.

O'ZBEKISTON: SAKKIZ YILDA NIMALARGA ERISHDI?

Yuqoridagi xavflar ichida yashayotgan bir mamlakat uchun bu so'nggi sakkiz yilda O'zbekiston nimalarni amalga oshirdi?

Shu yerda raqamlar o'z so'zini aytadi.

Ishlab chiqarish o'sishi. 2016-yilga nisbatan umumiy qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmlari 4,5 barobar ko'paydi.

Jumladan, sabzavot ishlab chiqarish 10,2 dan 13,7 million tonnaga – 134,7 foiz, meva 2,6 dan 3,5 million tonnaga – 133,2 foiz, go'sht 2,2 dan 3,0 million tonnaga – 137 foiz, sut 9,7 dan 12,6 million tonnaga – 130 foiz va tuxum 6,2 milliarddan 9,5 milliard donaga – 154 foiz oshdi. Baliq ishlab chiqarish esa 84 ming tonnadan 206 ming tonnaga – ya'ni 2,5 barobarga o'sdi.

Suv – eng muhim masala. 2016-yilda suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingan maydonlar atigi 9,0 ming gektarni tashkil etardi. Bugun bu ko'rsatkich 2,6 million gektarga yetdi: tomchilatib sug'orish, yonga'irlatib sug'orish va lazerli tekislash birgalikda shu natijani berdi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston bu ko'rsatkich bo'yicha Markaziy Osiyoda birinchi, MDHda ikkinchi, Osiyoda to'rtinchi va dunyoda 13-o'rinda turadi.

Eksport sakrashi. 2016-yilda meva-sabzavot eksportimiz 591 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu raqam 3,2 milliard dollarga – 5,4 barobar ko'tarildi.

Yanada hayratlanarlisi shuki, oziq-ovqat sanoati mahsulotlari eksporti 28,5 million dollardan 1082 million dollarga, ya'ni 37 barobar oshdi. Bugun O'zbekiston mahsuloti 97 davlatda sotilmoqda.

Dalalarni raqamlashtirish. 2021–2025 yillarda 20 ta raqamli axborot tizimi yaratilib, amaliyotga joriy etildi.

Agrar va oziq-ovqat sohalariga ajratilgan subsidiyalarning samaradorligi va natijadorligini oshirish maqsadida Agrar sohada to'lovlar agentligi tashkil etildi. Natijada, qishloq xo'jaligi subyektlariga subsidiya ajratish jarayoni 4 bosqichdan 2 bosqichga va muddati 31 kundan 21 kunga qisqaradi.

Chorvachilikda yangi zotlar. Shuni alohida qayd etish lozimki, mamlakatimizda 2020-yilda zotdor yirik qoramollarning ulushi 19 foiz edi, xolos. 2020–2026-yillar xorijiy davlatlardan 287 ming bosh nasldor qoramol olib kelinishi natijasida bugun bu ko'rsatkich 74 foizga chiqdi. Buning ortida aholimizni sut va go'sht bilan sifatli ta'minlashdek muhim vazifa yotadi, albatta.

O'ZBEKISTONNING 2050-YILDAGI ASOSIY IKKITA MUAMMOSI:

Birinchi xavf – suv. Tog' muzliklarining joriy oqibatida, 2050-yilga borib Amudaryodagi suv oqimi 15 foizga, Sirdaryodagi suv oqimi esa 5 foizga kamayishi prognoz qilinmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda mamlakatimiz suv resurslarining 90 foizi qishloq xo'jaligi sohasi tomonidan iste'mol qilinmoqda. Mutaxassislar O'zbekistonda suv taqchilligi 2050-yilga borib tobora oshib borishidan ogohlantirmoqda.

Ikkinchi xavf – iqlim. O'zbekistonda 1991-yildan beri o'rtacha harorat +1,2°C, ko'tarildi. Tahlillarga ko'ra, 2050-yillarga borib, agar o'z vaqtida moslashish choralarini ko'rilmasa, qishloq xo'jaligi hosildorligi jiddiy pasayishi mumkin.

2050-YILGA 7 TA YO'NALISHDAGI TAKLIFLAR

Birinchi yo'nalish – suvni yanada tejash. 2030-yilgacha barcha sug'oriladigan yerlardagi suv tejovchi texnologiyalar ulushini 80 foizga va undan yuqoriga chiqarish maqsadi belgilangan.

Ammo shuni ta'kidlash joizki, bu maqsad ortida doimiy yangilanish va puxta moliyalashtirish turadi. Xususan, sug'orish tizimining eskirgan kanallarida 35-40 foizga yaqin suv yo'qolishi hali yechilishi lozim bo'lgan dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Ikkinchi yo'nalish – qayta ishlash ulushini oshirish. Bugun O'zbekistonda ishlash chiqariladigan meva-sabzavotning 15 foizi qayta ishlanadi, xolos.

Bu ko'rsatkich nihoyatda past. Ya'ni, yarim tayyor mahsulot va konservativ ishlab chiqarishni kengaytirish, zamonaviy qayta ishlash korxonalarini ishga tushirish va hozirda mahsulotlar saqlanishi va tashilishi davridagi 30 foizgacha yo'qotishlarni kamaytirish keyingi o'n yilliklar "Yo'l xaritasi"ning markazida turishi lozim.

Uchinchi yo'nalish – mahalliy



Ibrohim ABDURAHMONOV, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vaziri, akademik

ovqatlanish madaniyatini saqlash va mustahkamlash. Shu o'rinda Xitoy tajribasi ibratli: 2025-yilda nashr etilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Xitoyning an'anaviy taomlar standarti G'arb parheziga qaraganda soya, makkajo'xori va bug'doy tanqisligi xavfiga ancha chidamli ekan.

O'zbek taomlari – mevalar, sabzavotlar, dukkaklilar, sut mahsulotlari – aslida "Agrimonde 1" idealiga juda yaqin turadi. Uni saqlash nafaqat madaniy, balki strategik vazifa ekan shubhasiz.

To'rtinchi yo'nalish – organik va "yashil" dehqonchilik. Yevropa, Yaqin Sharq va Osiyo bozorlarida organik mahsulotlar narxleri 20-40 foizga yuqori.

Bugun mamlakatimizda 6300 gektar maydonda organik meva-sabzavot parvarish qilinmoqda, lekin bu yer fondimizning juda kichik ulushi, xolos. Shu ko'rsatkichni 10 barobarga oshirish – real va erishish mumkin bo'lgan maqsad.

Beshinchi yo'nalish – STEM+HECI yondashuvi: fan, texnologiya, muhandislik va matematikani insoniylik, axloq, ijodkorlik va tasavvur bilan bog'lash.

Bugun mamlakatimizda Buyuk Britaniya Qirollik qishloq xo'jaligi universiteti ishtirokida tashkil etilgan Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti, Agroxizmatlar markazlari (AKIS) va 21 ta ilmiy-tadqiqot instituti birgalikda ishlamoqda. Bu tashkilotlar yiliga 100 mingdan ortiq fermerga maslahat xizmati ko'rsatmoqda. Shunisi e'tiborga molikki, bu tizimni yanada rivojlantirish va kuchaytirish – 2050-yilga tayyorlikning mustahkam poydevoridir.

Oltinchi yo'nalish – Qoraqalpog'iston va suvi kam mintaqalarga alohida diqqat qaratilishi lozim. Orol dengizi fojiasi bizga yer va suvni bebiliska boshqarish nimalarga olib kelishini tarixiy isbot sifatida ko'rsatadi.

Bu mintaqalar uchun tuzga chidamli navlar, kamsuv ekinlar va kam xarajatli issiqxonalar tizimini tashkil etish 2050-yil milliy strategiyasiga kiritilmoqda.

Yettinchi yo'nalish – ayollar va yoshlarni jalb etish. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ayollar qishloq xo'jaligi mehnat kuchining 40 foizidan ortig'ini tashkil etadi, ammo yer, kredit, texnologiya va maslahatga ularning kirish imkoniyati erkaklarga nisbatan hali ham cheklangan.

Yoshlarga yer ajratish dasturi

doirasida 2022–2025-yillarda 677 ming nafar aholiga 193 ming gektar yer ajratilib, 2,5 million kishining bandligi ta'minlandi. Bu tajribani izchil davom ettirish va mustahkamlash lozim.

DASTURXON VA DAVLAT: NIMA UCHUN BU HAR BIRIMIZGA TEGISHLI?

Diqqat qaratamiz: oziq-ovqat xavfsizligi – nafaqat siyosat yoki iqtisodiyot masalasi, balki bu dehqonning ekin-tikini, shaharlikning dasturxoniga, bolalarning sog'lig'iga va Vatanimizning chinakam mustaqilligiga bevosita daxldor masala.

Bugun O'zbekistonda 540 trillion so'mlik qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda – bu 2016-yilga nisbatan 4,5 barobar ko'p. Lekin 2050-yilga borib bizga yana bir necha barobar ko'proq mahsulot zarur bo'ladi, chunki aholi o'sadi, urbanizatsiyalashuv tezlashadi va iqlim murakkablashadi.

Jahon olimlarining hisoblashicha, insoniyat bu muammoni yechishi mumkin: qachonki, dunyo mamlakatlari hozirdan sug'orish, agrar tadqiqot, qishloq yo'llari, ta'lim va toza suv uchun yiliga 32 milliard dollar investitsiya kiritib borsal!

E'tiborli jihat, O'zbekistonda bu ishlar davlat, xalqaro tashkilotlar va xususiy tadbirkorlar hamkorligida amalga oshirilib kelinmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Agar fan, texnologiya va innovatsiyalardan samarali foydalansak, har bir muammoni imkoniyatga aylantirish mumkin". Bu oqilona fikr oziq-ovqat xavfsizligi masalasiga, ayniqsa, daxldordir.

XULOSA: BUGUN EKILGAN URUG' ERTAGA NON BO'LADI

Insoniyat tarixini kuzatadigan bo'lsak, dalalarda mehnat qilayotgan odamlar doim hayotning markazida turganiga guvoh bo'lamiz.

2050-yilning real xavflari: suv taqchilligi, iqlim o'zgarishi, mikroplastik zaharlanish, antibiotiklarga chidamlilik.

Lekin javob ham aniq: suv tejovchi texnologiyalar, mahalliy navlar, organik dehqonchilik, raqamli tizimlar, STEM+HECI ta'limi va adolatli bozor munosabatlari.

O'zbekiston keyingi yillarda bu yo'ldan jadal odimlab bormoqda. Raqamlar guvohlik beradiki, mamlakatimizda meva-sabzavot eksporti, suv tejovchi texnologiyalar, baliqchilik keskin oshdi. Lekin shuni ochiq aytish kerak: 2050-yil rejalari uchun bu hali boshlang'ich qadamlardir.

Dasturxonimizdagi non, sut, sabzavot va mevalar – bobodehqonlarimizning zahmatli mehnatlari samarasi. Dalalarimiz bugun olib borilayotgan siyosat va islohotlar, ekilgan urug'lar va kiritilgan investitsiyalar bilan mahsuldor bo'ladi.

Shu ma'noda, 2050-yilda aholimiz va farzandlarimizni oziq-ovqat bilan to'la-to'kis ta'minlash bugun bizning qo'limizda. Ilm-fan, ijod hamda mas'uliyat birlashgan joyda barcha muammolarga yechim topiladi.

OLAM OLIMI

Shimon SAKAGUCHI

Immun tizimini o'rganishdagi inqilobiy nobelchi

2025-yilgi fiziologiya yoki tibbiyot bo'yicha Nobel mukofoti "periferik immunitet tolerantligi" sohasidagi fundamental tadqiqotlari uchun Meri Brunkov, Fred Ramsdell va Shimon Sakaguchiga topshirildi. Quyida ushbu sovrindorlardan biri – yapon olimi Shimon Sakaguchining ilmiy faoliyati va uning tibbiyot rivojiga qo'shgan hisssasi xususida so'z yuritiladi.



BIOGRAFIYA

Shimon Sakaguchi 1951-yil 19-yanvarda Yaponiyaning Nagahama shahrida tug'ilgan. U 1976-yilda Kioto universitetining tibbiyot fakultetini muvaffaqiyatli tamomlab, 1983-yilda tibbiyot fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Ilmiy faoliyatining dastlabki bosqichida Aichi saraton markazi tadqiqot institutida immun tizimi hujayralarini o'rganish bilan shug'ullandi. Keyinchalik AQSHning nufuzli ilmiy markazlari – Jons Hopkins va Stenford universitetlarida tadqiqotlar olib bordi.

ASOSIY KASHFIYOT

1995-yilda Shimon Sakaguchi organizmni autoimmun kasalliklardan himoya qiluvchi immun hujayralari turini aniqladi. Ularni tartibga soluvchi T-hujayralar (Tregs) deb atadi. Tadqiqotchi mazkur hujayralarning autoimmun jarayonlarning oldini olishdagi hal qiluvchi rolini isbotladi, biroq ularning rivojlanish mexanizmini o'sha davrda to'liq aniqlolmadidi.

2001-yilda Brunkov va Ramsdell og'ir autoimmun buzilishlardan aziyat chekuvchi sichqonlar genomini o'rganish davomida FOXP3 genidagi mutatsiyani aniqladilar. 2003-yilga kelib, Sakaguchi ushbu gen aynan o'zi ilgari surgan tartibga soluvchi T-hujayralarning shakllanishi va funksiyasini boshqaruvchi asosiy omil ekanligini tajribada ko'rsatib berdi.

Natijada, uch nafar olimning izlanishlari immunitetning murakkab ichki nazorat tizimining molekulyar mexanizmi haqida to'liq tasavvur hosil qilish imkonini berdi.

AHAMIYATI

Sakaguchi nafaqat fundamental izlanishlar, balki ularning klinik amaliyotga tatbiq etilishiga ham munosib hissa qo'shdi. U T-hujayra terapiyasi bo'yicha ilmiy loyihalarni rivojlantirishda bevosita ishtirok etib, immun tizimini maqsadli boshqarish texnologiyalarini takomillashtirdi. Bugungi kunda ushbu kashfiyot tibbiyotning uchta asosiy yo'nalishini rivojlantirishda zamin bo'lib xizmat qilmoqda.

Immun tizimining haddan tashqari faolligini susaytirish va sog'lom to'qimalar shikastlanishining oldini olish maqsadida Tregs miqdorini sun'iy oshirish usullari ishlab chiqilmoqda.

Saraton hujayralari ko'pincha T-hujayralarni o'ziga jalb qilib, tananing immun hujumidan himoyalanaadi. Olimlar ushbu hujayralar faolligini maqsadli to'xtatish orqali organizmning o'z immunitetini saraton hujayralarini yo'q qilishga yo'naltirishi ustida ish olib bormoqdalar.

Organ ko'chirib o'tkazilganda tana yangi a'zoni "begona" deb qabul qiladi. A'zoning rad etilish reaksiyasini kamaytirish uchun Tregs terapiyasi yordamida donor organga nisbatan immun tolerantligini oshirish imkoniyati mavjud.

Jasmina ISROIL tayyorladi.



TARIX VA TAQDIR

Men Tulu' afandi degan kishi ismiga bundan yetti-sakkiz yil ilgari, "Ona yurtim – Qirg'iziston, O'sh..." degan kitobimga material yig'ayotgan chog'da duch kelgandim. Ijodkor muallim Odiljon Rahimov O'shning qadimgi guzarlari tarixini bitish asnosida Tulu' afandini ham tilga olib, iliq so'zlar bilan ta'riflagan ekan. Afsuski, u kishining yozganlari mashinkalangan holda qolib ketgan, chop etilmagan.

Xullas, Tulu' afandi...

Odiljon Rahimovning qaydlarini o'qib, Tulu' domlani Chingiz Aytmatovning "Birinci o'qituvchi" qissasidagi Duyshen muallimga o'xshatgan edim. Aytmatovning qissasi o'z eli farzandlarini ilmi-bilimli qilishga hayotini bag'ishlagan bir fidoyi qirg'iz yigiti haqida.


Duyshen singari ma'rifat fidoyilari o'tgan asrning boshidan to' elliginch yillarigacha yurtning har bir shahri, ovuli va qishlog'ida topilar edi. O'shlik Abduqodir Ismoilov degan odam ham ana shularning biri bo'lgan. Bu ma'rifatparvar inson o'ziga Tulu' so'zini taxallus qilib olgan. Tulu' – tong yog'dusi degani. Lug'atlarda bu so'zga quyosh chiqishi, oyning ko'tarilib olamni yoritishi, ufqda yulduz paydo bo'lishi, deb izoh berilgan. Keng ma'noda, yuksalish, o'sish, ko'tarilishni anglatadi. Muqimiyning bir g'azalida bu so'z shunday shaklda keladi: "Ey sipehri makramat, v-ey mehri burji i'tilo" I'tilo – tulu' so'zidan yasalgan: baland, yuksak ma'nosida. Xalqi bu kishini Tulu' afandi deb atagan.

Bugun qiziqchi, g'alati gaplarni topib aytuvchi, hazilkash odamni afandi deymiz, hatto sodda va anoyi odamlar ham afandi deb ataladi. Ammo yuz yil avval u janob, taqdir degan ma'noda kelgan (marhamat qiling, afandim). Shuningdek, kishi nomiga qo'shilib, hurmat bildirgan, muallim ma'nolarini ham anglatgan. Fuzuliy zamonida esa yor ham "afandi" deb ta'riflangan: "Go'zum, jonim, afandim, sevdigim, davlati sultonim..."

Tulu' muallimni hurmat yuzasidan afandi, deb atashgan. O'tgan asrning yigirmanchi-o'ttizinchi yillariga qadar aksar jadidlar "afandi" unvoni bilan tanilgan. O'sh teatri asoschilaridan biri Jo'raxon Zaynobiddinov "Jo'ra-xon afandi" deyilar edi. Mirzakalon Ismoilniyning "Farg'ona tong otguncha" romanida esa Fosih afandi degan kishi haqida gap ketadi. Bunda ularning Turkiya ma'rifatparvarlaridan ulgi olganligi ayon bo'ladi.

Odiljon Rahimovning yozishicha, Abduqodir Tulu' domla O'shning Jiydalik mavzeyida yashagan, kosib va bog'bon bo'lgan. Yoshligidan ko'p o'qib, bilim oshirgan, madrasa ta'limini olgan. She'r yozgan. Tengdoshlari o'rtasida o'ta hozirjavoblighi bilan e'tibor qozongan. Andijon, Sim (Farg'ona)da chiqadigan gazetalarni, hatto Qozonda chop etiladigan jurnallarni o'qigan.

1910-yilda bu zot ot'larining da'vati bilan o'z mablag'iga O'shda, o'z uyida "Turon" kutubxonasini ochgan. Kutubxonadan foydalanish bepul, Tulu' afandining o'zi ham kutubxona mudiri, ham bibliograf edi. Bu yerda o'sha davr ziyoli yoshlari to'planib,



TULU' AFANDI KIM EDI?

adabiy kechalar o'tkazishgan, Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoki axloq", Poshshoxo'janing "Miftohul adl" kabi asarlarini, o'zbek mumtoz adabiyoti namunalari bo'lgan ko'p qo'lyozma asarlarini faqat Tulu' afandi kutubxonasidan topish mumkin edi.

Albatta, u davrda bu katta jasorat talab qiladigan yumush bo'lgan. Chunki usuli qadim tarafdorlari jadidlarni yoqtirishmagan, hamma joyda ularni qoralab, avomning nafratini qo'zishga intilishgan. Bu sharoitda "yangicha" nashrlarni targ'ib qilish boshni baloga tiqishning o'zi edi.

Biroq izlanishlar Tulu' afandi shunchaki bir g'ayratmand odam bo'lmaganini ko'rsatadi. U butun borlig'i bilan ma'rifatga intilgan, o'z elini shu yo'lga boshlagan, umrini shu ishga baxshida etgan.

Buning dalili sifatida O'zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malikning "Ozod inson haqida qo'shiq" qissasidan bir parcha keltirish joiz ko'rinadi. U tog'asi Mirzakalon Ismoilii hayotining so'nggi kunlariga bag'ishlangan bu asarida adibning suddagi mana bu ko'rsatmasini taqdim etgan:

"... (O'shdagi yetimxonada) muallimlarimizning erta-yu kech qiladigan ishlari yetimlarga turk ashulalarini o'rgatishdan va turkcha komanda berib bizni mashq qildirishdan iborat edi, – deb yozgan ekan Mirzakalon Ismoilii. – Bizga "Sanjog'imiz", "Chanoqqal'a" kabi turk ashulalarini o'rgatganlari esimd.

Yetimxonaga ba'zan Tulu' afandi bilan Shahidiy afandi degan ikki zot kelar edi. Bularning birinchisi o'shlik millatchilardan bo'lsa, ikkinchisi asir tushgan turk zobiti edi. Shahidiy afandi muallimlar, tarbiyachilar va katta yoshli bolalar bilan Turkiya haqida, turk askarlarining dovyurakligi haqida, bizlarning ham "turk jujuqlari" ekanimiz

haqida suhbat o'tkazardi. Men kichik yosh bo'lganim uchun ular davrasiga kirmas, agar gaplarini eshitsam ham baribir, tushunmas edim. Yetimxonada ikki yil tarbiyalandim, xat-savodim chiqdi, oq-u qoraga ozmi-ko'pmi tushunadigan bo'ldim.

Izzat Sultonov bilan shu yerda tanishdim, u ham yetimxonada tarbiyalangan edi. 1922-yil keldi. Meni shu yili Toshkentga, O'lka o'zbek erlar bilim yurtiga o'qishga yubordilar...

Jumlaga nuqta qo'yib yana o'ylanib qoldi: Tulu' va Shahidiy afandilar nomlarini zikr etishi to'g'ri bo'ldimi yo noto'g'rimi? Shahidiy afandining Turkiyaga qaytib ketganini, Tulu' afandining esa Munavvar qorilar safida qamoqqa olinganini eshitgan edi. Demak, ularga bu idora zulm o'tkaza olmaydi. Demak, bu o'rinda sotqinlik yo'q.

Afandilarning suhbatlarini eshitganida chindan ham ko'p narsalarni tushunmas edi. "Sanjog'imiz"da nima uchun Turkiya bayrog'ini sharaf-layotganini ham anglamasdi. Bir kuni tarbiyachisidan "Chanoqqal'a"ning ma'nosini so'raganida "Turkiyaning Chanoqqal'a degan joyida katta urush bo'lgan, dunyoning barcha mamlakatlaridan borgan yoshlar kofirlarga qarshi urushishgan. Ikki yuz mingdan oshiq yosh yigit shahid bo'lgan.

Tulu' afandi bilan Shahidiy afandilar o'sha janglarning sharaffi qahramonlaridan sanaladi", deb tushuntirgan edi".

Chanoqqal'a – Turkiyaning g'arbi-dagi, Dardanell bo'g'ozi bo'yida joylashgan muhim port shahri va viloyat markazi. Tarixiy ahamiyati – bu yerda 1915-yilda mashhur Chanoqqal'a jangi bo'lib o'tgan. Bu urush turk xalqining Angliya va Fransiya ittifoqchi qo'shinlariga qarshi omonsiz jangi

va unda qozonilgan buyuk g'alabasi bilan yakunlangan. Hozir ham bu sana har yili Turkiyada katta tantana qilib nishonlanadi.

Demak, Abduqodir Ismoil o'g'li – Tulu' afandi ana shu jang ishtirokchilaridan bo'lgan. Biroq bugun u kishi O'shdan besh yarim ming chaqirim nariga borib, bu muhorabaga qanday qo'shilgani, uning sabab va tafsilotlarini aniqlash imkoni yo'q. Unga qadar ko'p zamonlar uyida jadidlik harakati bilan mashg'ul bo'lgani, birinchi kutubxona ochgani, 1914-yilda O'sh teatrida Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi sahna-ga qo'yishda yetakchi bo'lganini hisobga olsak, Chanoqqal'a jangi paytida Tulu' afandi kamida qirq yoshlardagi kishi bo'lib chiqadi. Turkiyaga ilm talabida borib, tahsil davomida bu muhorabaga qo'shilganmi, yoki turk tanzimatchilari taklifiga ko'ra, biron munosabat bilan borgan edimi, bunisi muhham. Ammo Chanoqqal'a jangiga ixtiyoriy ishtirok etgani va qo'lga qurol olib jang qilgani – haqiqat. Ayon bo'ladiki, bu zot faqat og'izda millatchi bo'lmagan, balki hayotini ham ilm-ma'rifatga, turkchilik g'oyalari ro'yobga chiqarishga bag'ishlagan.

Mirzakalon Ismoilii bayon qilgan hollar 1918–1921-yillarga oid. Chunki 1922-yil boshida u Toshkentga o'qishga yuborilgan. Tulu' afandi esa, nazarimizda, yigirmanchi yillar oxiri-o'ttizinchi yillarda ijtimoiy harakatdan chetga chiqqan, bunga yetarli sabablar bor edi.

Yodingizda bo'lsa, "Birinci o'qituvchi" qissasining poyonida Duyshen maktab muallimi emas, balki poch-talon bo'lib ishlayotgani hikoya qilinadi, chunki endi uning ilmi yangi zamon yoshlariga bilim berish darajasidan orqada qolgan. Tulu' afandi ham umrining oxirida O'sh teatrida suflyorlik qilib, aktyorlarga matnini eslatib o'tirgan. Duyshen singari ilm-bilimi yetishmay qolgani sababli emas, balki shunga majbur bo'lgan. Sahnada olamiga endi kirib kelayotgan aksar yoshlar esa, boshqa birov emas, aynan ana shu kamsuqum suflyor chol O'sh teatriga asos solib, uning tamal toshini qo'ygan muhtaram zotlardan biri bo'lganini bilishmagan ham.

Tulu' afandining hayot sanalari ma'lum emas. Agar u kishi shaharning Jiydalik mavzeyida yashagan bo'lsa, balki evaralari, yo qarindoshlaridan qay biri shu mahallada yashar. Ta'bi nazmi bor edi, degan qaydga kelsak, yozgan she'rlari ham avlodlaridan kimningdir qo'lida bo'lishi mumkin.

"Ozod inson haqida qo'shiq" asaridan keltirilgan parchada "Tulu' afandining Munavvar qorilar safida qamoqqa olingani" ham aytilgan edi. Avvalo, Munavvar qori bilan birga 1930-yilda qamoqqa olinishi Tulu' afandining maslagi ham Munavvar qori bilan bir xil ekanini, buning ustiga, e'tiborli bir shaxs bo'lganini ko'rsatadi.

Endi ikki og'iz Tulu' afandi bilan O'shdagi yetimxonaga hamisha birga tashrif buyuradigan Shahidiy degan turk zobiti haqida. Manbalarda u kishi haqida ma'lumot topilmadi. Shahidiy uning ismimi, yo ota ismimi, yoinki taxallusimi – noma'lum. Ikkinchidan, agar u asir tushgan bo'lsa, Sho'ro yetimxonasiga qanday bemalol kelib turk ashulalarini o'rgatgani, turk

bayrog'ini emin-erkin tashviq qilgani ham ajablanarli.

Shu o'rinda o'sha yillari Turkistonga kelib, o'zbek yoshlarini turkiychilik ruhiga undagan va ismi Shahidiyga ancha o'xshash Ehson Shahid degan turk kishisi yodga keladi. Bu odam va do'sti Ibrohim afandilar yosh o'zbek adiblarini turkiylik shavqi bilan ruhlantririb, Bois Qoriyevga – Oltoy, Muso Toshmuhammad o'g'luga – Oybek, Usmonxon Dolimovga – Subutoy, Mahmud Hodiyevgga – Botu kabi taxalluslarda ijod qilishni tavsiya etishgan (u davrda "turkiylik" deganda boboturkiy elat ko'zda tutilgan, keyinchalik ajralib chiqqan mo'g'ul va turk qabilalari yaxlit tushunilgan). Bizningcha, Ehson Shahid Mirza-kalon Ismoilii ko'rsatgan Shahidiy-ni o'zi bo'lsa ajab emas. Ikki-ta Shahid ismli turkiylik da'vatchisining bir davrda bir makonda faoliyat yuritgan bo'lishi qiyin. Qolaversa, Shahidiy faqat O'shda ishlamagan, Turkistonni yaxlit bir o'lka sifatida qabul qilargor, butun Turkiston bo'ylab kezib, ma'rifat ulashgan. Chunonchi, Hamza Xorazm va qoraqalpoq eliga borib maktablar ochgan.

Tulu' afandi o'ziga turkiy emas, arabiy o'zakli taxallusni ancha avval tarangan. Chunki u Munavvar qori, Shahid afandilar bilan qurdosh ilk jadidlardan edi, u davrda boshqa ellardan ulgi olish an'anasi bo'lmagan. Ch'apon va boshqa ijodkorning turk tilida she'rlar, Abdulla Qodiriyning esa tatar lahjasida ocherklar yozgani – nisbatan keyingi hodisa.

Garchi Sovet davrida, qadim-chilarga qaraganda jadidlik "prog-ressiv" deb sanalgan bo'lsa-da, uning vakillariga munosabat sovuq holda qolgan. Chunki aynan jadidlar – ma'rifatparvar, millatni uyg'otuvchi toifa edi. Shuning uchun ularning aksari qamaldi, o'tildi, surgun qilindi, bir amallab tirik qolganlari esa o'zining kimligini bildirmay, hech kimga "izhori fazl" etmay kun ko'rishga mahkum etildi. Ularning ko'pi ulamo degan "ayb" bilan terror qilindi. Holbuki, ular, garchi o'ta bilimli bo'lsa-da, din arbobi emas, avvalo ma'rifatparvar edilar. Mahjuriy, Luzumiyday shoirlar ovloq cho'l joylarga surgun qilindi, Samar bonuning jivani Raziddin maxsum kabilar zavodda duradgorlik bilan umr o'tkazdi.

1910-yildayoq O'shda, balki butun Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib shaxsiy kutubxona ochgan, shoirligi bilan tanilgan, mintaqadagi ikkinchi teatni ochib, unda Behbudiy asarini sahnaga olib chiqqan Tulu' afandi – o'ttizinchi yildagi birinchi qatag'on tegirmonidan bir amallab omon chiqqan o'sha Abduqodir Ismoilov domla, keyinchalik barcha faoliyatidan voz kechishga mahkum etilgan ko'rinadi. Umri oxirida O'sh teatrida suflyorlik qilishi uning zaiflashib, taqdirga tan berganidan emas, balki jismoniy va ruhiy tazyiqlar natijasida shunga majbur bo'lgani oqibati, albatta.

Pirovardida bir gap. O'shning Jiydalik mahallasida yashab o'tgan bo'lsa, loaqal o'sha yerda shu odam nomini eshitganlar bo'lishi mumkin. Bunday munavvar zotlar haqidagi har bir ma'lumot qadrii va qimmatli bo'ladi.

O'shlik qadrdonlar, orangizda Tulu' afandini bilganlar bormi?..

Zuhriddin ISOMIDDINOV

AZIZ XOTIRA



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Shokir Alimov – 1898-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. 17-poliklinika va 3-bolalar poliklinikasida vrach lavozimida ishlagan. Toshkent pedagogika bilim yurtini, 1932-yili Toshkent tibbiyot institutini bitirgan.

1934-yildan "Milliy istiqlol" tashkilotining a'zosi bo'lgan. 1941-yili qizil armiya safiga chaqirilgan va 3-4 oy davomida harbiy vrach sifatida lagerda ishlagan. 1942-yil 19-yanvarda Ichki ishlar xalq komissarligi organlari tomonidan hibsga olingan. 5 yil muddatga mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1942-yil 20-yanvardan hisoblangan.

U "Boyaut" kanali qurilishida qatnashgan. 1942–1947-yillarda Qozog'istondagi Qarag'anda lagerida jazo muddatini o'tagan. 1947–1949-yillari Ohangaron rayonida shifokor bo'lib ishlagan. 1953-yilgacha venerolog sifatida faoliyat ko'rsatgan. Shokir Alimov 1957-yil 15-aprelda to'liq reabilitatsiya qilingan.

Toshpo'lat Akbarov – 1894-yili Asaka tumanida tug'ilgan. 1919–1930-yillarda partiya safida bo'lgan. 1930-yil 9-mayda "Milliy istiqlol" va "Botir gapchilar" tashkilotining a'zosi sifatida qamoqqa olingan. O'zSSSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4-, 11-bandlari bilan ayblanib, 1931-yil 25-aprelda 3 yil muddatga konslagerga hukm qilingan.

Mo'minjon Hakimov – 1889-yili Andijon shahrida tug'ilgan. "Milliy istiqlol" tashkilotining faoliyatidagi ishtiroki va aksilingilobiy harakati sabab 1936-yili hibsga olingan. Tintuv chog'ida uyidan "Milliy istiqlol" tashkilotining UsmonAkromiy yozgan a'zolikka qabul ustavi topilgan. 1936-yili sud kollegiyasi hukmiga ko'ra 3 yil muddatga konslagerga jo'natilgan.

Sharif Yusupov – 1870-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Kalinin rayoni proku-raturasi kotibi lavozimida ishlagan. Chor hukumati davrida advokatlik qilgan, 1919-yili Eski shaharda bo'lib o'tgan Osipov qo'zg'olonida ishtirok etgan. "Sho'royi Islom" partiyasining faol a'zosi o'laroq. 1937-yil 28-mayda dindorlarning yashirin yig'inini o'tkazganlikda, dinga qarshi hukumat va partiyaning tadbir-larga qarshilik ko'rsatganlikda, 1937-yil 5-dekabrda Oliy Sovetga o'tkazilgan saylovni "yolg'on, aldov saylov" deb aytganlikda ayblangan.

1938-yil 25-fevralda O'zSSSR Ichki ishlar xalq komissarligi "Uchligi" tomonidan 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan. Qamoq jazosini Toshkent temir yo'li Sirdaryo bekati-ga yaqin Malik sovxozi mehnat lagerida o'tagan.

Mardonbek Nosirbekov – 1889-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. 1918-yildan 1921-yilgacha Toshkentdagi so'l eser tashkilotining nufuzli va faol a'zosi bo'lgan. Polkovnik Abdusolihov bilan birga Osipov qo'zg'olonida qatnashgan. inqilobgacha Toshkent tramvayida vagon haydovchisi, keyin turli muassasalarda bir qancha vazifalarda xizmat qilgan. U So'l eserlar tashkiloti bilan aloqada bo'lganlikda, sovetlarga qarshi tashviqot olib bor-ganlikda ayblanib, 1938-yil 23-fevralda hibsga olingan. "Milliy ittihad" tashkilotiga a'zoligi va sovetlarga qarshi targ'ibot olib borganligi uchun O'zSSSR Ichki ishlar xalq komissarligining 1938-yil 5-apreldagi qaroriga binoan 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. 1962-yil 20-iyunda reabilitatsiya qilingan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonda).

JAHOH AYVONIDA

YOZ YOMG'IRI MAVSUMI

2026-yil yozda Markaziy Osiyo mamla-katlarida anomal darajada kuchli yomg'ir yog'ishi mumkin. BMT Butunjahon meteorologiya tashkilotining prognoziga ko'ra, Tinch okeanidagi El Nino hodisasining qaytishi mintaqaga mana shunday "syurpriz" olib keladi.



Ekvatorial Tinch okeanidagi jarayonlar va Markaziy Osiyo ob-havosi o'rtasidagi bog'liqlik bir qarashda tushunarsiz tuyulishi mumkin. Biroq 2026-yilda xavfli kumulyativ effekt yuzaga keladi. Antropogen omil sababli sayyora atmosferasi va gidrosferasi allaqachon xavfli darajada qizib ketgan.



BEMORLAR IZOLYATSIYADAN QOCHDI

Ebola virusini yuqtirgan o'n bir kishi Kongo Demokratik Respublikasidagi (KDR) izolyatordan qochib ketdi. Bu haqda mamlakat Sog'liqni saqlash milliy instituti hisobotida qayd etilgan.

Ma'lum qilinishicha, gap xavfli virus tarqalishining epitsentri bo'lgan Ituri provinsiyasi haqida ketmoqda. Bir necha kishi Katana shaharchasida Ebola kasalligidan vafot etgan odamni dafn etayotgan mutaxassislarga hujum qilgan. Oqibatda jasad solingan tobutni tashlab ketishga to'g'ri kelgan.

KDR va Ugandada 60 ta o'lim va virus yuqtirishning 344 ta holati laboratoriya orqali tasdiqlangan.

QIRG'IZISTON XAVFSIZLIK KENGASHIDA

BMT Bosh Assambleyasi Avstriya, Qirg'iziston, Portugaliya, Trinidad va Tobago hamda Zimbabveni ikki yillik muddatga Xavfsizlik Kengashining 15 ta a'zolik tarkibiga sayzladi. Ular Xavfsizlik Kengashining muvaqqat a'zolari bo'ladi va 2027-yil 1-yanvardan ish boshlaydi.



Reuters'ning yozishicha, Osiyo-Tinch okeani guruhi kvotasi uchun Filippin va Qirg'iziston o'rtasidagi bellashuv to'rt bosqichli ovoz berishgacha davom etdi. Yakunda qo'shnilarimiz 142 ovoz bilan o'z tarixida ilk bor Xavfsizlik Kengashi a'zoligini ta'minladi.



BIRINCHI TRILLIONERLIKKA NOMZOD

Ilon Mask "SpaceX" kompaniyasi aksiya-larining qiymatini ommaviy savdoga chiqarish arafasida 1,75 trillion AQSH dollar deb baholadi.

Birjadagi savdo shu narxda amalga oshsa, Mask dunyodagi birinchi trillionerga aylanishi mumkin. Bu haqda kompaniya AQSH Qimmatli qog'ozlar va birjalar komissiyasiga (SEC) taqdim etgan hujjatlarda e'lon qildi.

Qayd etilishicha, "SpaceX" aksiyalarining dastlabki bahosi har bir donasi uchun 135 dollar qilib belgilangan. Agar investori ushbu narxda aksiyalarni sotib olsa, kompaniyaning umumiy bozor qiymati taxminan 1,75 trillion dollarga yetadi.



BUYUK XIZMATLAR UNUTILMAYDI

Boshlanishi 1-sahifada.

**“Buyuk xizmatlari uchun”
ordeni bilan**

Odil YOQUBOV



O'smirlik paytim “Billur qandillar” asarini o'qib, voqea bayonigina yaxshi ekan, deb xom xulosa qilganimni unuta olmayman. Chunki buvimning dashnomidan keyingi ikkinchi o'qishda asarning mohiyati va asar muallifining maqsadini uqqan edim.

O'smir qalbim “Muqaddas” qissasining mutolaasidan keyin yana o'sha tuyg'u bilan ro'baro' kelgan. Bayon usulining ravonligi kitobxonni o'ziga jalb etar ekan, asarda asta-sekin, biroq dadillik bilan jamiyatda ko'zga tashlanavermaydigan, shu bilan birga, taraqqiyot uchun katta to'siq bo'ladigan poraxo'rlik, tanish-bilishchilik tanqidiy tahlil qilib boriladi.

Bu dadillikni oliy minbardan turib so'zlangan tarixiy nutqda ham ko'rish mumkin. Notiq o'n to'rt respublika xalq noiblari qarshisida O'zbekiston xalqining haq-huquqlarini himoya qilib so'z olgan, o'z xalqini himoya qila olgan adib o'z asarini ham munosib himoya qila olgan edi.

O'sha tuzum g'oyasining soyasi va chizig'idan chiqmaslikka urinib qo'liga qalam olganlarning jild-jild kitobi chop etilganida, Odil Yoqubov badiiy kengashda “Ulug'bek xazinasi” qo'lyozmasini mardonavor himoya qiladi. Bugungi kunda minglab kitobxonlar uchun juda yaxshi tanish bo'lgan roman dunyo yuzini ko'rgunicha, muallifi ko'p malomat toshlariga ko'ksini qalqon qilishiga to'g'ri kelganiga tarix ham, yozuvchining zamondoshlari ham guvoh. Adibning “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasiga bosh muharrirlik qilgan davri esa alohida kitob bo'lgulik ijodiy faoliyat.

Bir odamda shuncha iste'dod va fazilat qayerdan, desam, toza vijdon va “Tilda, fikrda, ishda birlik”da ekan. Buni O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirmirzayevning “Yozuvchi” hikoyasidan o'qib, teranroq anglaydi, kishi: “Odil Yoqubov “qahramon”ga aylangan chog'da men ich-ichimda buyuk qanoatni tuyaman va maqtangim keladi: “Yozuvchilar borki, durust yozadilar. Ammo shaxs sifatida... gaplashgning kelmaydi. Ular siz-u bizga do'st ham bo'lolmaydilar. Chunki odamga “material” deb qarashadi, o'zlari bilmagan holda... Ha, Shaxs – Yozuvchilar kam bo'lar ekan: xayriyat, bittasi yonimizda...”

Zaynab SADRIYEVA

Zaynab Sadriyeva – xalqchil san'atkor. “Kelinlar qo'zg'oloni” spektakli 800 marta sahna yuzini ko'rgan. Shu 800 ta chiqishda yetti o'g'lining ham, yetti kelinning ham obrazini yaratuvchi aktyorlarning dublyorlari bo'lgan. Ammo Farmonbibini 800 martada ham aktirisaning o'zi ijro etgan, dublyori bo'lmagan. Bu nafaqat o'zbek,



balki dunyo teatri tarixida ham kam uchraydigan holatdir.

Qolaversa, 1950-yillarda Maqsud Shayxzoda qatag'on qilinib, uning tarjimasidagi spektakl repetitsiyalari to'xtatilganida va pyesani boshqa tarjimon o'zbekchallashtirishi aytilganida, teatr jamoasidan faqat Maryam Yoqubova mafkura idoralari korchalonlariga e'tiroz bildirib, Shayxzoda tarjimasida spektakl premjera qilinishiga erishadi. Shayxzoda oqlangach, uni birinchi yo'qlab borganlar Zaynab Sadriyeva va Maryam Yoqubova bo'lgani haqida o'qigandim. “Xalq dushmani”ning rafiqasi sifatida teatrdan bo'shatilgan birinchi professional o'zbek aktrisasi Ma'suma Qoriyevani teatr va sahnaga qaytarishda bu fidoyi san'atkorning ham hisssasi bor.

Zaynab Sadriyeva shunchaki rol ijro etmagan, balki sahnada, ekranda tirik qahramon yaratgan. Bu obrazlar, faqatgina so'z va monologlari uchun xalqchil emasdi. Qahramonlarning nigohlari, har bir harakati o'zbek xarakterini ko'rsatib beradi. Inchunin, o'zbek teatr va kino san'atida yaratilgan ona yoki qaynona qahramoni to'g'risida so'z borsa, dastlab Zaynab Sadriyeva va u yaratgan Farmonbibini hamda Anzirat buvi obrazlari eslanadi, e'tirof etiladi.

Odatda, har bir ijodkorning bitta ezgu orzusi bo'ladi. Bu – bir ijrosi, bir asari orqali xalq mehri va muxlislar e'tirofiga sazovor bo'lish. Shu ma'noda, o'zining (“Kelinlar qo'zg'oloni” spektakli va “Suyunchi” filmi)dgagi rollari orqali san'at shaydolarini mahliyo qilgan Zaynab Sadriyevaga barcha ijodkorlar havas qilsa arziydi.

Hamza UMAROV



1987-yil 27-noyabr kuni o'zbek san'ati va madaniyati og'ir judolikka uchradi. Shu kuni O'zbekiston xalq artisti Hamza Umarovning so'nggi nafasini mezon shamollari chin dunyoga olib ketgan edi. Biroq, shuning bilan san'atkor o'ldi, degan jo'n xulosa chiqarish xato.

Eng yaxshi rol, ehtimol, faqat yaxshi o'ynalgani emas, balki qalb bilan “ich-ichidan yashab berilgan” roldir. Hamza Umarov har bir rolida yashagan, butun bir umri o'tkazgan aktyor edi, deiyishga to'la asos bor. “O'tkan kunlar”, “Galatepalik avliyo”, “Mahallada duv-duv gap”, “Shum bola”, va yana boshqa o'nlab filmlarda yaratgan qahramonlari misolida shunday deyish mumkin.

Hamza Umarov hamisha salohiyatli, ulkan iste'dodli aktyor sifatida tilga olinadi. Zero, tirikligidayoq o'ziga xos maktab yaratgan, o'zbek teatr va kino san'atida yangi sahifa ochgan bu san'atkor

boshqacha tasavvur etish mumkin emas...

Chig'atoydagi Hamza Umarov mangu qo'nim topgan makonda yodgorlik o'rnatilgan. Bu qabr toshining ahamiyati shundaki, san'atkor vafotidan keyin bir kechada – 28-noyabr kuni o'rnatib ketilgan ekan. Kim tarafidan qo'yilgani hanuzgacha jumboq. Qabr toshiga “Muxlislarimizdan” deb yozilgan, xolos. Mashhurlik havosida, ijod va san'at da'vosida yurgan har kim o'ziga shu savolni berishi kerak: “Mening shunday muxlisim bormi?”

**“Fidokorona xizmatlari uchun”
ordeni bilan
Saida ZUNNUNOVA**



Farmonda mukofotlangan marhum adib va san'atkorlardan barchasining ism-familiyasini o'qib, xursand bo'ldim, behad quvondim. Biroq, Saida Zunnunovaga kelganda, negadir yig'lagim keldi. Bo'g'zimga nimadir tiqildi... Birgina “Qanoatda Saida shuncha bo'lurmu, hay-hay” satirini qarang!

Turmush o'tog'ri Said Ahmad nohaq qamalib, erining “xalq dushmani” ekani haqida tilxat yozishi talab qilingan vaqtga chinakam matonat va jasorat namunasini ko'rsatganini tarannum va talqin etish uchun bir qancha musiqiy asarlar va badiiy filmlar ham o'zilik qilmoqda. Axir, Saida xonimning tuhmatnomalarga kiprik qoqmay imzo chekib bergan zamondoshlari oz edi deysizmi?! Inchunin, bu jur'at va jasurlik, mardlikka haykal qo'yish kerak edi va shunday bo'ldi ham.

Umriyning gul fasli sobiq tuzum davrida xazonga aylantirilgan, ijodining qaynoq davrida ham yochitib e'tirof etilmagan Saida Zunnunova tavalludining yuz yilligidagi yodlov xoksor va jafokash adibamizning tom ma'nodagi fidokortligining adolatli e'tirofi bo'ldi.

**“Mehnat shuhrati”
ordeni bilan
Ikroma BOLTAYEVA**



Ikroma Boltayeva nafaqat ijodda, balki jamoat ishlarida ham juda faol bo'lgan. U uzoq yillar hozirgi O'zbek milliy akademik drama teatri kasaba uyushmasining raisi sifatida halol mehnat qilgan.

San'atkor teatrdagi ish boshlagan o'nlab “bola”larining mashinali, uy-joyli bo'lishi uchun kasaba uyushmasi raisi sifatida yelib-yugurgan, ter to'kkan. Buning uchun Toshkentdagi katta amaldorlar, olis shimoldan yuborilgan arboblarning qabullariga kirib chiqishdan tap tortgan emas. U yosh aktyorlar faqat sahnada emas, hayotda ham o'z o'rmini topishi uchun harakat qilgan. Teatrdagi shuncha “bola”sini poytaxtda ham, sahnada ham vatanli qilgan bu fidoyi zot o'z o'g'liga kelganida qo'li kaltalik qilganini o'ylab, ming bir iztirob chekkani tabiiy...

1983-yillar. O'shanda teatr sahnasida komediya janridagi bir spektakl qo'yilayotgan, Ikroma Boltayeva bosh rollardan birini ijro etayotgandi. Sahnada o'rtida navbatini kutib turgan aktrisasiga Buxoro viloyatida xizmat qilayotgan yolg'iz o'g'li “paxta ishi” bo'yicha hibsga olinganini aytishadi. hayotiy tragediya girdobida qolsa-da, komedik rolni oxirigacha ijro etish uchun o'zida kuch topa oladi. U ko'p harakat qiladi. Biroq to'qqiz oy yuragi ostida asrab, dunyoga keltirgan; oq yuvib-oq tarab ulg'aytirgan, endi rohatini ko'raman degan o'g'lini tuhmat girdobidan asrab qolish uchun ojiz qoladi...

Farzand dog'i qarshisida jigari kabob bo'lgan teatring onasi hisoblanmish Ikroma Boltayevaga mustaqil O'zbekiston onalarcha mehribonlik ko'rsatdi. Ozod O'zbekiston tarixidagi “Mustaqillik” nishoni eng birinchi Ikroma Boltayevaga topshirildi.

Ochilxon OTAXONOV



Shirin nafas egalariga qadimda “Xonaqohiy ovoz sohibi” nisbati berilgan ekan. Uning o'z ijrochilik yo'li bo'lib, san'atda xos maktab yaratgan. Shu kunlarda bu maktabda kamol topib, xalqqa xizmat qilib kelayotgan hofizlar oz emas.

Hofizlikning ilk saboqlarini tog'alari Eshonboboxon, Ko'kxon va Afandixon hofizlardan o'rgangan Ochilxon Otaxonov yosh yuragida san'atga bo'lgan mehnri baland tutib, “Dilraboni axtarib” degan she'r bilan kuyulanuvchi birinchi mualliflik ashulasini kuylaganida 21 yoshda edi. Zahmatkash hofiz 46 yoshida Respublika maqomchilar tanlovida g'olib bo'ldi. Shu tariqa andijonlik san'atkorning Yangiyo'l madaniyat uyidagi ijodiy faoliyati boshlanadi. Yunus Rajabiy, Faxriddin Sodiqovni o'ziga ustoz deb bilgan san'atkor Mahmudjon Tojiboyev kabi hofizlarga ustozlik qiladi.

Repertuari tom ma'noda rang-barang bo'lgan hofiz katta ashulalar va Farg'ona-Toshkent yo'llaridagi maqomlarni maromiga yetkazib ijro etish barobarida, musiqali spektakllarda aktyor sifatida ham faol qatnashib kelgan. Ochilxon Otaxonov o'zining noyob ovozi va insoniy fazilatlar bilan el-yurt hurmati va san'at shinavandalar e'tiborini qozongan, mehnatdan shuhrat topgan san'atkor edi.

Otabek ISROILOV

YANGI KITOBLAR

SAMIMIY IZHORLAR

**Agar sen Quyoshim bo'lsang
mabodo,
Shunday yozning issiq kunida
Juda-juda sovg'otdim,
Nechun?

Nega o'zi chiqdim ko'chaga?
Nega buncha bashang kiyinib
oldim?
Qo'limda gul buning ustiga?..**

Bayram oqshomida
oppoq qor yog'di.
Onamning sochlari kabi
oppoq qor...
Xotinim sovg'amdand ko'p
xursand bo'ldi...**


Turfa kayfiyatlarini xuddi suratga muhrlagandek tasavvur uyg'otuvchi bu dilgir va falsafiy satrlar zamonaviy she'riyatimizda Abdurasul Jumaqul o'tli o'ziga xos shoir borligi va u o'z yo'lida sobit ijod qilib kelayotganidan dalolat beradi.

Odatda, ko'pchilik Abdurasul Jumaqulni so'zi o'tkir jurnalist sifatida taniydi, uning dolzarb mavzularda yozilgan maqolalarini, omilkorona olib borayotgan muharrirlik faoliyatini yaxshi biladi. O'zbekiston Yozuvchilar uyush-



masi homiyligida nashr etilgan “Faqat sen” nomli to'plamini mutolaa qilgach esa, uni shoir sifatida qaytadan kashf etasiz.

To'plamga shoir Ikrom Otamurod so'zboshi yozgan, shuningdek, kitobdan Muhammad Ali, Ahmadjon Meliboyev, Norqobil Jalil, Salim Ashur va boshqa taniqli adiblarning muallif haqida bildirgan samimiy dil izhorlari o'r in olgan.



**O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi tomonidan taqdim
etilgan yana bir kitob “Zar
ham, zargar ham o'zing” deb
nomlanadi. Maqola, esse,
suhbat, taqriz va qaydlardan
tashkil topgan ushbu to'plam
muallifi shoir, tarjimon va
publitsist Sirojiddin Raufdir.**

“...Bugungi Sirojiddin o'sha kezlari katta publitsistlar safiga iymانبroq kirgan, ko'proq ting-


lagan, so'z aytish odobiga rioya qilgan Sirojiddindan keskin farq qiladi, – deb yozadi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Ahmadjon Meliboyev kirish so'zida. – O'zbekistonda kechgan, kechayotgan ko'p bosqichli ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy jarayonlar, ularning turfa darajadagi samaralari Sirojiddin-ning dunyoqarashi, ong-tafakkuri, ijodkorlik idroki ufqini yanada kengaytiribdi, fikrlash tarzi, bahsmunozara yuritish mahorati jamiyatning kuyunchak bir a'zosi sifatidagi maqomini oshiribdi. Bu – o'z-o'zidan paydo bo'lgan maqom emas, izlanish, kuzatish, yurt kezish, qiyoslash, kuyunish natijasi.

Muhtaram kitobxon, siz qo'lingizdagi ushbu kitobning xohlagan sahifasini oching, harorati, fikr salmog'i bir-biridan qolishmaydigan maqolalarni o'qing – bunga siz ham ishonch hosil qilasiz”.

Ustoz publitsistning ushbu iliq fikrlari mazkur to'plamni tanishtirish va tavsiya etish uchun albatta kifoyadir.

Kitob “Sahhof” nashriyotida dunyo yuzini ko'rgan.

Ikrom BO'RIBOYEV



**“Barcha asl buyukliklar sezilmas
darajada asta-sekinlik bilan
shakllanadi.**

SENEKA

Jadid
adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

**Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO**

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Mas'ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Otabek Bakirov

Adadi – 18 461
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 999
Lotin yozuvida – 11 462
Media kuzatuvchilar – 83 970
Buyurtma: G – 640
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 66

Sahifalovchilar:

Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzilizimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

**“Sharq” nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi.**

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz

Muassislar:



**O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI**



**RESPUBLIKA MA'NAVİYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI**



**MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAAT FONDI**



**“SHAHIDLAR XOTIRASI”
JAMOAAT FONDI**